

TURSUNBOY ADASHBOYEV

# ORZULARIM ~ QO'SH QANOFTIM

*She'rlar va ertaklar*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2003

**So'z boshi muallifi va muharrir — Tohir MALIK**

*Qadrli jigarbandlarimiz, adabiyotimizning kenja muxlislari!*

Avvalo qo'lingizga olgan bu yangi kitobingiz sizga muborak bo'lzin! Siz bu kitobda taniqli shoiringiz Tursunboy Adashboyevning sara she'r va ertaklari bilan tanishasiz. Shoir akangiz bilan birga tabiat mo'jizalaridan zavqlanasiz, tarixga sayohat qilasiz, harf o'yinlarini o'ynab zavqlanasiz, hazillarni o'qib, miriqib kulasiz.

Marhamat, kitobning dastlabki varag'ini varaqlang.

**Adashboyev, Tursunboy.**

Orzularim — qo'sh qanotim. She'rlar va ertaklar  
T.: «Sharq», 2003. — 192 b.

**O'z.2**



Bolajonlar! Dil rubobin,  
Sizlar uchun sozlaganman.  
Qudrat Hikmat aytgandayin,  
«Har maqomda» yozmaganman.  
Yengil mavzu ilinjida,  
So'z gavharin qazmaganman.  
Qalamdayin taroshlanib,  
Behudaga ozmaganman.  
Elga uchib ketgani yo'q,  
Jonni fidо aylaganim,  
Qirq yilkim, o'shal sozga,  
Yurak qo'rin joylaganim.  
Bugun esa qo'lingizda,  
Topinganim – saylaganim.




## QO'SH QANOT

*Olmos mening yuragim,  
 Tolmas mening yuragim.  
 Kim aytadi she'rimda  
 Qolmas mening yuragim...*

Atoqli shoir Qudrat Hikmatning mazkur satrlari barcha bolalar ijodkorlari nomidan aytilgan, desak ham bo'ladi. Agar tasavvurimizdagi adabiyot maydoni yoinki adabiyot xazinasida joy taqsimlanadigan bo'lsa, shubhasiz, eng ko'rkan joy, eng yuqori martaba bolalar adabiyotiga ajratiladi. Bunday deyishimizga asoslar bor. Birinchidan, bolalar uchun ma'qul tarzda yozish eng og'ir yumushlardan hisoblanadi. «Aldagani bola yaxshi» deyilmish maqol uyda yoki bozorda haqiqatdir, biroq adabiyotga mutlaqo xos emasdir. «Bolalar uchun yozish oson» deguvchilar qattiq yanglishadilar. To'g'ri, bolalarga atab tikilmish ko'yaklar orasida bir yengi uzun, biri kalta beo'xshov liboslarni uchratganimizdek, asarlar orasida ham noboplariga ko'zimiz tushadi. Bundaylarni birov badiiy asar safiga qo'shmaydi. Biz «bolalarga yozish qiyin», deganda chinakam badiiy asarlarni nazarda tutyapmiz. Hazrat Alisher Navoiy zamonidan to bugungi kunimizgacha ulug'larning bolalar uchun yozgan asarlarini eslaylik. Kattalar uchun beqiyos asarlar yozgan buyuk yozuvchilar bolalarni ham esdan chiqarmaganlar. Ayni chog'da jahon adabiyoti, xususan o'zbek adabiyoti tarixida faqat bolalar uchun ijod qilgan ulug'lar ham bor.

Bolalar adabiyotiga yuqori martaba berilishining yana bir asosiy sabablaridan biri – bu adabiyot jamiyat kela-jagini belgilovchi yosh avlodni tarbiyalaydi, ularni fikr-lashga, dunyonи anglashga o'rgatadi. Ta'bir joiz bo'lsa, kattalar adabiyotining o'quvchisini, kitob muhibbini aynan bolalar adabiyoti tarbiyalab beradi. Agar bolaning qo'liga tushgan birinchi kitob xom-xatala bo'lsa, unda adabiyotga bo'lgan qiziqish cho'g'i o'chishi mumkin, aksincha bo'lsa, bu cho'g' alanga olishi tayin. Demak, bolalar adabiyotida tarbiyachilik mas'uliyati ham mavjud ekan.



# ЎҚИРМАНЧИ АСРДА

Yigirmanchi asrda o'zbek bolalar adibiyoti Abdulla Qodiriy, Cho'lpion, Usmon Nosir, Oybek, G'afur G'ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, Shukur Sa'dulla, Qudrat Hikmat, Yusuf Shomansur kabi qalam ahlining asarlari bilan g'oyat boyidi. O'tgan asrning oltmishinchı yillaridan bolalar adabiyotida yangi nomlar paydo bo'ldi. Tursunboy Adashboyevning matbuotda e'lon qilinayotgan she'rlari ustozlar diqqatini tortdi. Ustoz Qudrat Hikmat bilan shogird Tursunboy Adashboyevni bir-biriga yaqinlashtirgan narsa ham aynan bolalarga yozilgan she'rlar edi. Shogirdga ustozning ikki benazir fazilati meros bo'lib qoldi. Biri — bolalar adabiyotiga sodiqlik, fidoyilik, ikkinchisi — yosh ijodkorlarga mehribonlik. Qudrat akaning yoshlarga mehribonliklariga o'zim guvoh bo'lганман. Bolalik chog'larimda, Qudrat aka boshqargan adabiyot to'garagiga qatnashar edim. To'garakda katta, taniqli shoir, hali bola, havaskor shoircha degan tushuncha yo'q edi. Qudrat aka biz — bolalar bilan adabiyot xususida gaplashganlarida, bizlarning mashqlarimizni eshitgancha bola kabi quvnab ketardilar. Arzimas satr yozgan bo'lsak ham maqtardilar, ko'nglimizni sovutmas edilar. Qudrat aka vafot etganlaridan bir necha yil o'tib O'sh shahrida Tursunboy aka Adashboyev bilan tanishdim. Birinchi uchrashuvdayoq men Qudrat Hikmatni ko'rgan-dek bo'ldim. O'sha quvnoqlik, o'sha mehribonlik, ayni damda talabchanlik... Keyinroq bilsam, Tursunboy aka Qudrat aka bilan yaqin bo'lганеканлар. Tahsinga va o'rnakka loyiq yeri shundaki, Tursunboy aka hozirgacha ustozning xonadonlarini ziyorat qilib turadilar.

Bolalar adabiyotiga sadoqat bilan xizmat qilayotganlariga qirq besh yildan oshibdi.

Tursunboy aka O'shda yashayotgan kezları Toshkentga sira yolg'iz kelmas edilar. Albatta yonlارida bir yoki ikki yosh ijodkor bo'lardi. Yoshlarni turli nashriyotlar, gazeta yoki jurnal idoralariga boshlab borib, tanishtirardilar. O'shlik ijodkorlarning dastlabki kitoblari aynan shu mehribonlik mevasi deyishimiz mumkin. Buni ustozning haqqini o'ziga xos ravishda ado etish, desak ham bo'ladi.

Tursunboy Adashboyev va u kishining tengdoshlari bolalikning shirin daqiqalaridan benasib qolishgan. Ularning bolaliklari Ikkinchı jahon urushi yillariga to'g'ri

# ЎҚИЛГАН ТОВОНИМГА

kelgan. Daladagi og'ir mehnat, mактабдаги og'ир шароитларда о'қиб, билим олиш — ularning bolalik xotiralaridir.

*Yorilgan tovonimga  
 Onam piyozdoq surib...  
 ... Bezgak xuruj qilganda  
 Ko'kka chiqib nolishim,  
 Tol bargiga ko'mishsa,  
 Beda bo'lgan bolishim...  
 ...Tilardingiz onajon  
 Ulkan bardosh va to'zim.*

Urush davridagi bolalikning og'ир кунлари bayoni bugun ertakka o'xshab tuyuladi. Hozir saroymonand uylar quri layotgan damlarda tomdan chakka o'tish haqida gapirilsa ko'pchilik ishonmas edi. Holbuki:

*Qirq birlinchi yilning bahori  
 Jonimizdan to'ydirdi chakka.  
 «Jang» qilamiz uyning ichida  
 Tomchi bilan yakkama-yakka.*

Bolalarning non tanlab xarxasha qilishlari, sal suvi qochgan nonning tashlab yuborilishi, isrof qilinishiga ko'p guvoh bo'lamiz. Bu holat haqida achinib-achinib gapiramiz. Tursunboy Adashboyev esa bu noxush holatni she'r ga ko'chirib, o'quvchi xayolini yana urushning og'ир кунларига tortadilar:

*Suli asli otning yemi,  
 Ishlatilmas bo'lakka...*

Ha, shunday. Ammo qahatchilik yillarida hatto sulidan ham non yopib yeyilgan. Qaynoq suvgaga qoqi solinib «olma choy», «sabzi choy»lar damlab ichilgan. Bir burda non esa arzanda...

*Nabiramning non tanlashi,  
 Malol kelgach, so'nggi dam,  
 Bolalikdan ushbu lavha  
 O'tdi ko'zim o'ngidan...*

Tursunboy Adashboyev tug'ilib voyaga yetgan joy Safedbulon deb ataladi. Bu qishloq Namangan va O'sh viloyatlarining bir-biriga tutash qismida joylashgan. Ijodkorga uning go'zal tabiatini, shirinso'z, mehr-oqibatlari

# ЧЕЧАК

odamlari ilhom beradi, deyilsa yanglishilmas. Tursunboy akaning she'rlari, dostonlarida tabiat manzaralarini ko'p uchratamiz. Zero, bolalar adabiyotining muhim vazifalariidan biri – farzandlarni tabiat go'zalliklarini his qila olish va seva olishga, qadrlashga o'rgatishdir.

*Hoy chechak,  
Boychechak.*

*Yashnab ketdi qir tagi  
Quyoshmisan qirdagi?  
– Biz oftobning parchasi,  
Ochib yerning darchasin,  
Shu tuproqqa boylandik,  
Boychechakka aylandik.*

*Bahordan elchi – chechak,  
Rahmat senga, Boychechak.*

Bolalar adabiyotiga nazar tashlasak, bahor manzarasini tasvirlovchi satrlarni ko'p uchratamiz. Nima uchun shunday ekan? Ehtimol, umrning bolalik fasli ayni bahorga o'xshaganidandir?

*Qoyalar qilar xitob: – Bu fasl noyob kitob,  
Hali tugal o'qilmagan, o'qilmagan...*

Bola yoshida hali kishi bu «noyob kitob»ni o'zi mustaqil ravishda o'qiy olmaydi, o'qisa-da, anglay olmaydi. Bu faslda «yomg'irning yerni iyadirishi, yashil chakmon kiydirishi» bola uchun ulug' mo'jiza bo'lib tuyuladi.

*Bahor ko'ylak kiydirdi,  
Ko'k egniga bulutdan...*

Tabiat mo'jizalarini hayrat bilan kuzata olish ham inson zotiga berilgan ulug' ne'mat. Tabiatni seva olgan odam bolasi esa baxtlidir. Tabiat go'zalligidan zavq ola bilgan kishi ko'nglida zulmga o'rin yo'q. Tabiatni seva olish – shu tabiatning bir zarrasi bo'l mish ODAMni sevish demak. Va bu zarur fazilat bolaning musaffo qalbida xuddi bahordagi chechak kabi yuz ochadi. Biz – ota-onalar, tirikchilik tashvishi bilan bo'lib bu tarbiyaga uncha ahamiyat bermaymiz. «Nega yomg'ir yog'adi?», «Nega daraxt gullaydi?», «Nega momaqaldiroq guldiraydi?» kabi savollar selidan yengil-yelpi, ba'zan noto'g'ri, noaniq

# ЎҚДОЛЛАР

javoblar bilan qutulmoqchi bo'lamiz. Ana shunda farzandimizga sodiq va maslahatgo'y do'st – kitob yordamga keladi.

*Chaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,  
Qizg'aldoqlar selda oqdi.  
Quyosh yana kulib boqdi  
Bahor kelgach...*

Afsus shuki, barcha ham tabiatning maftunkor go'zalligini ko'ravermaydi. Inson bolasiga xos «loqaydlik» deyilmish illat mavjudki, agar bu xastalik bolalik chog'larida muolaja etilmassa keyinchalik boshga ko'p balolar yog'ilishiغا sabab bo'ladi. «...Laylak bezib ketgan, loqaydlikni sezib ketgan» ekan, buning oqibatini o'ylash kerakmikin...

Bola ulg'ayish chog'ida dastlab ota-onasini, buvabuvisini, aka-opalarini va boshqa qarindoshlarini taniyboradi. Bular tabiiy jarayon. Ijtimoiy jihatdan olib qarasak, Vatanni tanimoqlikdagi dastlabki atak-chechak qadamlarga o'xshatish mumkin. Ota-onani tanimoqlik bilan Vatanni tanimoqlik orasida yaqinlik bor. Ota-onani sevmagan, qadrlamagan kishi Vatanning ham qadriga yetmaydi. «Vatanni sevmak» tarbiyasi esa ona suti bilan qalbga singdirilishi kerak. Ona allalarida Vatanni ulug'lovchi satrlarning mavjudligi bejiz emasdир. Shunga ko'ra hech bir ijodkor bu mavzuni chetlab o'tmaydi. Xususan, Tursunboy Adashboyevning asarlarida bunday satrlarni ko'p uchratamiz. Uning tabiat tasvirlari ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. «Tabiat go'zal Vatanni seving va bu go'zallikni asrang!» – ijodkor asarlari qon-qoniga singgan g'oyalardan biri shudir.

*Bobolarning qon va teri  
tomgan tuproq...  
...Qotilni ham, botirni ham  
sukut saqlab,  
ehtiyyotlab o'z bag'riga  
olgan tuproq...  
...Ajdoddlardan meros bo'lib  
qolgan tuproq...*

Merosni esa avaylab-asrash kerak. Sir emaski, har qanday mamlakat kelajagining muhim omillaridan biri – farzandlarni aynan shu ruhda tarbiyalamoq. Agar kishi qadriyat

# ЎҚИДАГИ БОЛАЛАР

nima, u qanday avaylab-asralishi kerak, ma'naviyat nima, u qanday boyitilishi shart, degan savollariga bolaligida javob topolmasa, yoshi o'tgandan keyin bu fazilatlarga erishmog'i juda mushkul. Dunyo bolalar adabiyotini kuzatsak, shu mavzuga e'tibor kuchli ekanini ko'ramiz. Ne shodki, o'zbek bolalar adabiyoti ham bundan mustasno emas. Tursunboy Adashboyevning «Yassaviy zuryodlari», «Qismat», «Oltin yolli tulpor», «Burugutning o'limi» kabi asarlar bu mavzuni boyitishga ulkan hissa qo'shami.

Bolalar tarbiyasiga oid gaplar shundayligicha, ochiq-oydin holda bayon etilsa ta'sirchan bo'lmashligi mumkin. Shuning uchun ham bolalar shoirlari voqeani jonivorlar hayotiga ko'chiradilar. Chippolino yoki Buratino, Doktor Voyjonim yoki «Etik kiygan mushuk janoblari» haqidagi asarlar shuning uchun ham ko'p yillardan beri yashab kelyapti. Ana shu go'zal an'ananing davomchisi sifatida Tursunboy Adashboyev ajoyib asarlar yaratdilar.

Bilamizki, hayotda do'st tanlash oson ish emas. Bu haqda donolar ko'p ibratlarni aytib ketganlar. Afsuslarkim, hayotda o'rgimchak singari mehribon «do'st»lar ham mavjud. Buni biz shoirning she'rida uchratamiz:

*«Qani yur, — deya uy tomon  
boshladи.*

*So'ng «mehmon»ni shiftga  
Bog'lab tashladи.*

Yoki birovning uyiga kirib olish — zo'ravonlikning oqibati nima bo'lismeni qaldirg'ochlar ayon qilib berdilar.

*Qaldirg'ochlar ishni boshlab,  
Loyni chilab, qo'shib somon —  
Eshik og'zin berkitdilar,  
Oqibati bo'ldi yomon.*

Yoki chaqimchining qanday jazo olajagini baxil chumchuq voqeasidan, tadbirkorlikni jo'janing harakatidan biliш ham mumkin. Maqtanchoqlikni esa chumoli polvonga chiqargan:

*Oramizda  
Qo'rqaqlar ko'p,  
O'rnak olsa  
Bo'lar mendan,  
Suzib o'tdim  
Okeandan.*



Yoki madaniy turmushni oshirmoq masalasini yechish ham osonmas. Bu masalada qushlar ko‘p urindilar:

*Laylakka rahmat, chunki  
Undan ko‘plar cho‘chirdi.  
Chinor, tutdan inini  
Simyog‘ochga ko‘chirdi...  
...Masalan qaldirg‘ochni  
Boyo‘g‘li ko‘p urishgan.  
Voz kechmaydi negadir  
Guvalak uy qurishdan.*


Tursunboy Adashboyevning ijodi bilan tanishgan kishi bir narsaga amin bo‘ladi: bu asarlar bolalar ham, kattalar ham baravar o‘qiydigan ibrat kitobidir.

Bir necha yil muqaddam «Cho‘lpon» nashriyoti «Sichqonning orzusi» degan mo‘jaz kitobchani nashr etdi. Tursunboy Adashboyev dunyo bolalar she’riyatida sichqon haqida yaratilgan ko‘plab she’rlarni tarjima qilib shirin-toylarga taqdim etganlar. Mazkur kitobcha orqali bolajonlar «yaxshi nima-yu, yomon nima?» degan masalaga javob olishlari mumkin. Biz kitobchaning dunyoga kelishdagি shoir va tarjimonning fidoyiligini ta’kid etmasak bo‘lmas. Chunki aynan shu ishlarida ham ustoz Qudrat Hikmatning nafaslarini sezdir. Qudrat aka nashriyotda ishlab yurgan kezlari xolis, beminnat xizmat qilib berardilar. Adabiyot to‘garaklariga qatnashuvchi bolalarning ilk mashqlarini to‘plab, tahrir qilib nashr etganlarini hali ko‘pchilik unutgani yo‘qdir. «Sichqonning orzusi» ham shu tarzda yuzaga keldi. Shoir to‘plovchi va tarjimon sifatida qalam haqi olmay bolalar adabiyotiga xolis xizmat qilib berdilar. Undan tashqari o‘nlab ijodkorlarning she’rlari ham beminnat tahrirdan chiqarildi.

Bolalar ijodkorlariga xos bir fazilat bor: hujjat bo‘yicha yosh ulg‘ayib boraveradi-yu, ammo qalbi bolaligicha qolaveradi. Tursunboy Adashboyev ham shundaylar. Chunki... o‘zлari yozganlaridek:

*Chunki pok niyat bilan  
Oftobni qarshilaydi.  
Ko‘p qatori eliga  
Faqat tinchlik tilaydi.*

**Tohir MALIK.**




Ona Vatan,  
Durdona Vatan!  
Kindik qonim to'kilgan go'sha –  
Menga Ka'ba,  
Yagona Vatan!  
Bobolardan merossan – qadim,  
Bag'ishlovnin Senga atadim.



## QIYOSI YO'Q

Sen tug'ilgan,  
Qutlug' xona.  
Aziz diyor,  
Pok ostona.  
So'lim o'lka,  
Kesh, Farg'ona  
Qadim Urganch.  
Shu durdona  
Ko'rakam Toshkent,  
Asal-qandim.  
O'sh, Buxoro,  
Samarqandim.  
Qiyoṣi yo'q,  
Bu yagona.  
Sen-u menga,  
Vatan – Ona.  
Shunday go'zal  
Ulug' yurtkim,  
Tuprog'ini  
Ko'zga surtgin.




# ТУПРОҚ

Ajdodlardan meros bo'lib,  
Qolgan tuproq.  
Bobolarning qon va teri  
Tomgan tuproq.  
Qizg'aldoqlar ochilganda,  
Qilmay kanda,  
Qir, adirlar gulxan bo'lib  
Yongan tuproq.  
To'kin-sochin dasturxonni,  
Solgan tuproq.  
Dori-darmon, sinovlardan,  
Tolgan tuproq.  
Qotilni ham, botirni ham  
Sukut saqlab,  
Ehtiyotlab, o'z bag'riga  
Olgan tuproq.  
Bobolarning qon va teri,  
Tomgan tuproq.



## SOG'INCH

Kuni bilan,  
Tuni bilan  
Yomg'ir ezib yog'adi.  
Bulutlarni tabiat,  
Erinmasdan sog'adi.  
Ko'cha-ko'yalar yaltirar,  
Tuxumdayin archilib.  
Ko'kning tubi teshilganmi?  
Tomchi tushar yanchilib.  
Qo'ldan tushmas soyabon,  
Ko'targanim-ko'targan.  
Ona yurt – oftobining,  
Chetda qadri o'tarkan.





## ONA TILIM

Alla bo'lib jaranglagan,  
Ona tilim – jon-u dilim.  
Unga axir payvastadir,  
Qadr-u qimmat, mehr bilim.  
Buyuk Temur jahon bo'ylab,  
Dovrug'in solgan tilim.  
Mir Alisher bobomlardan,  
Meros bo'lib qolgan tilim.  
Bobur Mirzo she'rlaridan,  
Rang va ohang olgan tilim.  
Shunday tildan tonar bo'lsam,  
Yoki o'gay sanar bo'lsam,  
Qiyma-qiyima bo'lsin tilim,  
Ona tilim – jon-u dilim.






## ZAR UQALI

Mustaqillik — nonday aziz,  
Mo'tabardir, buyukdir.  
Bobosi ham irim bilan,  
Muqaddas deb qo'yibdir.

Paxtaday oq, sutdayin pok,  
Imondayin u toza.  
Begardlikka qiyos qilsak,  
Bolakaylar andoza.



Ko'k beg'ubor tovlanadi —  
Yetti rangli kamalak.  
Xumo qushi qo'ndi boshga,  
Zar uqali jamalak.





## QAROG‘IM O‘SH

Qayda yurmay, qayon turmay,  
 Nigohim uzra paydosan.  
 Baroko‘hsan, dilbar, sho‘xsan,  
 Hazin Oqbura daryosan —  
 Qarog‘im O‘sh, charog‘im O‘sh!  
 Charos qori, Qambarniso,  
 Samarbon-u, Huvaydosan.  
 Shoир Mahjur kabi sodiq  
 Bir umr oshiq-u shaydosan.  
 Bobur Mirzo tavof qilgan,  
 G‘aroyib, qutlug‘ ma’vosan —  
 Qarog‘im O‘sh, charog‘im O‘sh!  
 Aziz shahrim, laziz nahrim,  
 Sabab, taxti Sulaymonsan.  
 O‘g‘ling Habib Abdulloday,  
 Arzir mehring uchun yonsam,  
 Qarog‘im O‘sh, charog‘im O‘sh!  
 Sen — Ibrohim Hamroboyev,  
 O‘zing Izzatli Sultonsan.  
 Ta‘rifingni yozar bo‘lsam,  
 Qaynagan chashma, vulqonsan!  
 Qarog‘im O‘sh, charog‘im O‘sh!  
 Sen — Shavkatning hasrat, dardi,  
 Yurakdan chiqqan ohsan.  
 Ikki elning onaxoni —  
 Qurmonjonsan — Dodhohsan.  
 Qarog‘im O‘sh, charog‘im O‘sh!





## OSMONI KENGROQ

Chorak asr shahri O'shdaman,  
Oqburadek<sup>1</sup> oqar yil, oylar.  
Qayta qurdik Bobur hujrasin,  
Va tiklandi ko'rka saroylar.

Chorak asr shahri O'shdaman,  
Uning mehri qalbimga jodir.  
Lol qolardi hozir ko'rsa gar,  
Toqqa chiqmay hazrati Bobur.

Huvaydoning nazari tushgan,  
Seni Vatan aylagan Bonu.  
Ayri tushib Andijonidan,  
Shoir Mahjur kuylagan yonib.


Do'stim, nahot Baroko<sup>2</sup> h<sup>2</sup> tog'in,  
Taqdirimdan ayro ko'rayman.  
Shu yurtdagi buyuklar haqqi,  
Men ulardan madad so'rayman.


Bag'rim butun, do'stlarim bisyor,  
Kamyob O'shday xushhavo joylar.  
Vafoli yor, o'g'il-qiz topdim,  
Oqburaday oqar yil, oylar.

Chorak asr shahri O'shdaman,  
Xizmatchilik, iloj yo'q, netay?  
Rostin aytsam, osmoni kengroq,  
Qishlog'imdan o'rgilib ketay...

<sup>1</sup> O'sh shahridan oqib o'tadigan daryo.

<sup>2</sup> *Baroko'h* – Go'zal Sulaymon tog'i.








## QO'MSASH

Qishning haqi qolgani yo‘q,  
 Yog‘di hatto uch kunlab.  
 Ayoz bobo qahridan so‘ng,  
 Bosildi sal uchqunlab.  
 Turna qator uy-joylarning  
 Qorga to‘ldi orasi  
 Gilam, sholcha — mahallaning,  
 Bo‘ldi zo‘r nog‘orasi.  
 Ishga sho‘ng‘ib ketdi qarang,  
 Chang‘i tegpan bolalar.  
 Kigiz, palos qo‘ltiqlashib,  
 Chiqdi amma, xolalar.  
 Shoир zimdan kulib boqar,  
 Hovlidagi tala-to‘pga.  
 Qo‘ni-qo‘shti yopishgancha,  
 Supurgi-yu, savacho‘pga,  
 Qoqar qishning chang-chungini,  
 Gardini, g‘uborini  
 Chunki, qo‘msab qolgan juda  
 Boychechak iforini...





## QO'SH QALDIRG'OCH

(*Holmatjon akaning hikoyasi*)

Elchi bahor keldi yana,  
Qir, adirga durlar sochib.  
Dutor nusxa inin yo'qlab  
Qaytdi tog'ning qaldirg'ochi.

Biroq, uning uyasini  
Hech tortinib o'tirmasdan  
Egallahish olgan ekan,  
Bir juft chumchuq atay-qasddan.

Qaldirg'ochlar iltimosin,  
Insofsizlar uqmay qo'ydi.  
Ichkariga kirib olib,  
Tashqariga chiqmay qo'ydi.

Qo'sh qaldirg'och chug'urlashib,  
Biri inni turdi poylab.  
Ikkinchisi do'st-yorlarin,  
Boshlab keldi parvoz aylab.

Endi ahvol tangligini  
Ikki chumchuq ko'rib turar.  
Hasharchilar to'rt tomondan,  
In og'zini qo'rib turar

Qaldirg'ochlar ishni boshlab,  
Loyni chilab, qo'shib somon –  
Eshik og'zin berkitdilar  
Oqibati bo'ldi yomon...






## TURNALAR

Uchburchakli xat misol ·  
Parvoz tar turnalar.  
Arg‘imchog‘in ne uchun,  
Uzmay ketar turnalar?

— «Arg‘amchiga qil quvvat»  
Eldan qolgan naqldir.  
Uka, bilsang turnalar,  
Ana shunday ahildir.






## ONAM YOPGAN PATIRDEK

Bugun yana qo'limda,  
Otamdan qolgan chalg'i.  
Gul to'shalar yo'limga,  
Ishlayman boshni tang'ib.

Yalpiz hidi atirdek,  
Dimog'imga urilar.  
Onam yopgan patirdek,  
Quyosh tog'dan ko'rinar.





## OLMOS QALAM

Qoldi birdan guldirab  
Ko'kda momoguldirak.  
Ona tovuq jo'jalarin,  
Boshlab qochdi chuldirab.

Yomg'ir yerni iydirar,  
Yashil chakmon kiydirar.  
Eski tandir ostida  
Qora kuchuk dildirar.

Yashin ko'kning ohimi?  
Chaqmoq gohi-gohimi  
Chizar olmos qalamda,  
Nurdan kiyik shoxini.






## BAHOR KELGACH

Qish qorini supurdi,  
Quyosh nurin ufurdi,  
Yalpiz hidi gupurdi,  
Bahor kelgach.

Chaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,  
Qizg'aldoqlar selda oqdi.  
Quyosh yana kulib boqdi  
Bahor kelgach.

Qo'ziqorin terdik tog'da,  
Odil bormay qoldi dog'da,  
Biz qovurib yedik yog'da  
Bahor kelgach.

Yalangoyoq qirda chopdik,  
Savat-savat «jag'-jag'» topdik,  
Ikki tandir somsa yopdik,  
Bahor kelgach.





## BOYCHECHAK

— Hoy chechak

Boychechak.

Yashnab ketdi qir tagi

Quyoshmisan qirdagi?

Qirdagi.

— Biz oftobning parchasi

Ochib yerning darchasin.


Shu tuproqqa boylandik,

Boychechakka aylandik.

Aylandik.

Bahordan elchi-chechak

Rahmat senga, boychechak.





## MUSHAK

Er-u osmon gumburlab,  
Tog'-u toshlar yangradi,  
Bedov kishnab ulovlar,  
O'qtin-o'qtin hangradi.

Sug'ur, jayra ko'p o'tmay,  
Archazorga topindi.  
Hadiksirab kirpilar,  
Otquloqqa yopindi.

Ko'kning olmos qilichi,  
Sig'mas edi qiniga.  
Toshbaqa-yu shilliqurt  
Kirib ketdi iniga.

Kurka qochar lo'killab,  
Xo'roz so'l-u sog'imda.  
Quyonboyning labiga,  
Uchuq chiqdi chog'imda.

Qoyadagi toshlar ham,  
Qulab tushdi guldirab.  
— Nima bo'ldi? — deb so'rар,  
Moviy buloq chuldirab.

Mayna bilan kakliklar,  
O'z holicha bo'zlashar.  
Hatto Arslon va Ayiq,  
Shivirlashib so'zlashar.

Nima bo'ldi kim aytar?  
Bo'ynoq qochar dildirab.  
Mushak otar basma-bas,  
Ko'kda Momoguldirak.






## QUYOSH BIZNI ARDOQLAR

Olmos tig'li chaqmoqdan,  
Ko'kning bag'ri sitilib,  
Uvadali bulut bexos  
Chok-chokidan titilib.

Osmon toqi nurlanib,  
Quyosh bizni sharaflar.  
Hatto tuynuk, tirqishlardan  
Nur sochadi yaraqlab.

Oftob qirda boychechakni,  
Gullatgani ulgurdi.  
Sumalak tashvishida,  
Buvim bug'doy undirdi.

Quyosh bizni ardoqlar,  
Olovida – taftida  
Bobom qo'shga shaylanar,  
Sara urug' kaftida.






## NAVRO'Z

Toblanib,  
Qish ayozida  
Qaldirg'ochning  
Bayozida  
Navro'z tushib kelar tog'dan.

Boychechakdan,  
Chambar boshda.  
Ta'zim qilib,  
Yurt, quyoshga,  
Navro'z tushib kelar tog'dan.

Qo'lga olib,  
Yangroq torin,  
Ko'z-ko'z qilib,  
Bisot-borin,  
Navro'z tushib kelar tog'dan.

Fayz ulashib,  
Tong-azonda.  
Sumalaklar  
Dosh qozonda  
Navro'z tushib kelar tog'dan.





## CHAQMOQ

O‘g‘lim terar boychechak,  
O‘yinni ham unutgan.  
Bahor esa osmonga,  
Ko‘ylak tikar bulutdan.

Bir bola tuzoq qo‘yib,  
Chumchuq ushlar, qush ovlar.  
Rahmat aka otini,  
O‘tga qo‘yar tushovlab.

O‘g‘lim chopar men tomon,  
Gul sayrini unutgan.  
Bahor ko‘ylak kiydirdi,  
Ko‘k egniga bulutdan.



## QIZG'ALDOQLAR QUTLASHAR

Tong oqarib yulduzlar,  
Asta o'chib boradi.  
Yaylov olis, cho'ponlar,  
Toqqa ko'chib boradi.

Irg'ishlaydi sho'x qulun,  
Peshonasi qo'ng'ir-oq.  
Lo'killaydi bo'taloq,  
Bo'ynida jez qo'ng'iroq.

Qizg'aldoqlar qutlashib,  
Chalar go'yo miskarnay,  
Bobom kelar chakmonni,  
Bo'ktargiga qistarmay.

Yaylov bag'rin yashnatdi,  
Oq o'tovli ovullar.  
Tunlar salqin bu yerda,  
Quvray o'tin lovullar.

---

<sup>1</sup> *Bo'ktargi* – ust-boshini egar ortiga bog'lash.






## QALDIRG‘OCH

Erta bahor qo‘nib olib  
Uyimizning shiftiga.  
Sayrab qolar, peshxarini –  
Ko‘targancha kiftida.

So‘ng qayrilma qanotida  
Keng fazoni qaychilab,  
In qurgani kirishadi,  
Tumshug‘ida loy chiylab.

Serhafsala, ishchanlik,  
Shu qushchaga dahldor.  
Goho uning inlarin,  
Buzadigan bahil bor.



# Толдібұлоқ

## TOLDIBULOQ

To'rg'ay yotar tuxum bosib,  
Shuvoq bilan sirlashib.  
Qora qo'ng'iz soqqa o'ynab,  
Do'ngga turtar tirmashib.

Yumronqoziq serhadik,  
Ish bitirar yugurib.  
Sug'ur archa ostida,  
Turar tasbeh o'girib.

Chigirtkalar qamishdan,  
Nay yasaydi — kertadi.  
Ko'kandagi biyaga',  
So'na dutor chertadi.

Tinmas Toldibuloq ham,  
Maynaning zavqi jo'shgan.  
Norxol momo yertandirda,  
Pishirar singgi po'shkal<sup>2</sup>.


---

<sup>1</sup> *Ko'kan* — hayvonlar bog'lanadigan joy.  
<sup>2</sup> *Po'shkal* — tog'liliklarning taomi.



## ASFALTDAGI RASMLAR

Kim tanimas ko‘chamizda  
 Dilshod, Sora, Nasimlarni.  
 Asfalt yo‘lda uymalashib  
 Chizar turli rasmlarni.  
 Vaqtinchalik unutishgan  
 Kitob, ruchka, daftarlarni  
 Aks etdirar shar ushlagan  
 Bolalarni, kaptarlarni.  
 Oqshom cho‘kib, tun ohista  
 Qora choyshab yopganida,  
 Ko‘kning momoguldiragi  
 Bo‘z tulporin chopganida,  
 «Suvda oqib ketmasaydi  
 Yo‘lda qolgan rasmlar», -- deb  
 Dilshod tunda uxlolmasdan  
 Tashvishlanib chiqdi hadeb.  
 Eh, xayriyat yomg‘ir bu gal  
 Suratlarni o‘chirmabdi.  
 Mashinalar kaptarlarni  
 Cho‘chitmabdi, uchirmabdi.  
 Tong yorishib, oftob toqqa  
 Alvon rangdan durra bog‘lar.  
 «Tinchlik», «ona» degan yozuv,  
 O‘tganlarning dilin chog‘lar.





## OQ BULUT

Oppoq bulut, oq bulut,  
Tog' bag'riga og' bulut  
«Oq oltin»ni terguncha  
Shoshma, ozroq yog' bulut  
Oppoq bulut, oq bulut,  
Etagingni qoq bulut.  
O'z to'pingdan ayrilib,  
Qolma tanho, toq bulut.  
Paxtadayin oq bulut  
Osmonga arqoq bulut  
Savacho'p ursa oyim,  
Bo'lasan tarqoq bulut  
Oppoq bulut, oq bulut,  
Tog' bag'riga og' bulut  
To terguncha paxtani,  
Shoshma, ozroq yog' bulut.



## DO'L


Loxyo'raklar loy chuvvar,  
Atrof ko'm-ko'k lojuvard.  
Barra piyoz naychalab  
Bamisol'i nay chalar.

Binafshalar qisman oq,  
Oyim terar «ismaloq».  
Birdan bulut qopladi,  
Do'l yog'di, shitobladi.

Cho'g' tushganday patakka,  
Tovuq qochar katakka.  
Maysa chirt-chirt uzildi.  
Rayhon behol suzildi.

Do'l hovliqib toshman der,  
Muz va qorga boshman der.  
Uning bag'ritoshligi,  
Hovliqma beboshligi.

Boshiga yetdi, qarang,  
Yerga singib yo'q bo'ldi  
Quyoshdan ochib arang.






## **BUG'DOYZORDA**

— Nega bug'doy bosh egar? —  
Savol berdim dadamga.  
— Mehnatini olqishlab,  
Ta'zim qilar odamga.  
— Tilla rangga ularni,  
Kimlar bo'yab ketishgan?  
— Qadoq qo'lli dehqonlar  
Terlar to'kib ekishgan.  
Shuning uchun har boshoq,  
Oltin bo'lib yetishgan.



## O'N TOVUQQA BERMADIK

Tong otmasdan qiy-qiyolab,  
Shovqin soldi baboq xo'roz.  
Otam kular, — chipordan ham  
Ayrilibmiz, ana xolos.  
— Bir haftada besh tovuqni,  
Tulki o'Igur qildi g'oyib.  
— Xo'rozingni ehtiyot qil,  
Tayinlaydi onam koyib.  
O'ta makkor, olg'ir ekan,  
Laqillatdi bizni anch'a.  
Bo'sh katakda yolg'iz xo'roz,  
Yashar edi mung'aygancha.  
Qovun-tarvuz avji pishgan,  
Kungaboqar choylab yotar.  
«Malish» qo'ylar kavsh qaytarib,  
Nimanidir chaynab yotar.  
Chirildoqlar gal berishmas,  
Qumg'on qaynab toshiqadi.  
Sulton dumbul pishirmoqchi,  
Tezak qalab oshiqadi.  
Toshfonarning hojati yo'q,  
Oy shu'lsasi mo'l-ko'l yog'ar.  
Hakim ushlar buzoqchani,  
Oyim esa sigir sog'ar.  
Ko'plar bilmas poliz ichra,  
Yulduz sanab yotish gashtin.  
Otam bizga so'ylab berar,  
«Alif Laylo» sarguzashtin...  
Yarim kecha sal narida,  
Nedir to'q-to'q etib borar.  
O'q ariqdan shippa o'tib,  
Qo'rqa-pisa ketib borar.  
Olib zarang tayog'ini,



# ЎҚИЛУЧЛАР

Otam kutdi allaqancha  
Tulki ekan, xurmachani,  
Boshga kiyib ko‘targancha  
To‘q-to‘q qilib borar edi,  
Sut ichgani tushgan ekan.  
Undan boshin chiqarolmay,  
Ko‘zi sutdan shishgan ekan.  
Otam uning terisiga,  
Somon tiqib kergani yo‘q.  
Uy to‘riga osib qo‘ydik,  
O‘n tovuqqqa bergani yo‘q...



## FAQAT YOZDA AYTINGLAR

Bahor kelib Sinchalak,  
Boshin ho'llab — suv chilab.  
Hadeb sochin taraydi,  
So'qmoqdagi ko'lmakchani,  
Ko'zgu qilib qaraydi.

Ko'rib qolib buni Hakka,  
Ig'vo qilib o'zi yakka  
Sinchalakning ustidan  
Erta-yu kech kulibdi,  
«Kal emish» deb yuribdi.

Parvo qilmay Sinchalak,  
Tumshug'ida suv chilab.  
Har kun sochin taraydi,  
So'qmoqdagi ko'lmakchani,  
Oynak qilib qaraydi.

Gap tarqalib ketibdi,  
Chumchuqqa ham yetibdi.  
To'rg'ay qo'shiq bitibdi,  
Qushlar uni bilganicha,  
Muhokama etibdi.

Buni sezmay Sinchalak,  
Bosh uzra suv chilab.  
Har kun sochin taraydi,  
So'qmoqdagi ko'lmakni,  
Ko'zgu qilib qaraydi.

Ig'vo yo'ldan qaytinglar,  
Navro'zda nag'ma tinglab,  
Qo'shiq kuylar paytinglar,  
Kim kalligin Hakkaga  
Faqat yozda aytinglar...






## CHILLA CHIQIB

Qish ayozi tobida,  
Qor erinmay bo'ralar.  
Shox-shabba orasidan,  
Ovchi sergak mo'ralar.

Eman bargi tovusning,  
Quyrug'iday serhasham.  
Kiyik yurgan so'qmoqlar,  
Qirda yo'l-yo'l beqasam.

Ayiq g'orga yo'l oldi,  
Piymasini ivitgan.  
Quyon po'stin tikibdi  
O'ziga oq tivitdan.

Yashil taroq archalar  
Keng yozib qulochini.  
Erinmasdan shamolning,  
Tarar paxmoq sochini.





## KO'PKARI

Ko'pkariga atalgan chog'i,  
Arslonbobning mashhur Chorbog'i,  
Tomoshabin uchun qulay, mos,  
Qir va adir yapasqi tog'i.

So'qmoq yo'lidan shoshib kelmoqda,  
Qari-qartang, yosh-u yalanglar.  
Bir yasharlik serka tashlandi  
Maydon ichra ana qaranglar.


Avjga minar sur-xo, sur-xolar,  
Qilichdayin o'ynar qamchilar.  
Tulporlarning yag'rinlaridan,  
Sharros-sharros terlar tomchilar.

Ko'pkarida g'aroyib tartib,  
Kimki g'irrom bilinib qolar.  
Egar og'ib, goh oyog'idan,  
Uzangisi ilinib qolar.

Qora bayir uchar quyunday,  
Ergash polvon borar taqimlab,  
Otni qichar, davra aylanib,  
Manzil sari kelgach yaqinlab.

Hakam xolis, sinchilar zukko,  
Bedov esa sapchiydi kishnab.  
Uloqni u qo'sh qo'llab tashlar,  
Chunki olgan qamchini tishlab.

Quvnar tutga mingan bolalar,  
Ko'pkarining xo'p zavqi bor-da.  
Ulgurmaytin qarsak chalishga  
Guppa-guppa yiqlar qorga...





## ILINJ

Bobom ekkan olmurut,  
Hovlimizning to‘rida.  
Yulduz sanab yotibman,  
Odmi yog‘och so‘rida.

Ajab, nokday xincha bel,  
Go‘yo zo‘ldir yombilar,  
Barg ostidan mo‘ralab,  
Ko‘zlarining yondirar.

Bandi mo‘rt-da, bu meva,  
Tong pallasi to‘kilar.  
Murodjonning yo‘lin poylab,  
Onam intiq o‘kinar.

Nabiralar sog‘inchi,  
Har qadamda bilinib.  
Olmurutdan bo‘yraga,  
Qoqi solar ilinib.

Odmi yog‘och so‘rida,  
Xayollarga botib man,  
Xom-xatala shu she’rni,  
Qayta ishlab yotibman.






## OSMON QAYDAN BOSHLANAR?

Toqqa boshin qo'ysa quyosh,  
Ufq ortin cho'g' qilarkan.  
Burgut uchun osmon asli,  
Boshlanadi cho'qqilardan.

Chumolining vaqtiz ziqroq,  
Gapi qisqa qalbi qaynoq.  
Uning uchun ko'k gardishi,  
Oltin rangli momaqaymoq.

Mirzacho'llik dehqon bobo,  
Gurung boshlar olisdan:  
— O'tar osmon chegarasi,  
Bizning qovun polizdan.

Muruntovlik mergan aytar:  
— Kuni-kecha qaytdim ovdan.  
O'zim ko'rdim, osmon axir,  
Boshlanarkan Tangritog'dan.





## QISHLOQDA TUN

Qishloqda tun, sergak itlar,  
O'qtin-o'qtin irillaydi.  
Saratonlar, chigirtkalar,  
Navbat kutmay chirillaydi.

Hordiq olar ko'kandagi,  
Qo'zi, qo'ylar yonboshlashib.  
To'riq baytal ancha horgan,  
Aravada beda tashib.

Qishloqda tun, osmonda oy,  
Mis tovoqday yarqiraydi.  
Oqburasoy bir maromda  
Alla aytib sharqiraydi.

Qora serka kavshanadi,  
Iyagini selkillatib.  
Zokir tog'am toshdek qotdi,  
Kelgan ekan biroz «tatib».

Tog'amlarning hurragi ham,  
«Pilqim pir-pir» g'alati.  
Bobom uxlар soqolini,  
Osmonga, oyga qaratib.







## KUZ

Yana xazonrezgilik,  
Bog'lar rangi siniqti.  
Dilda hokim ezgulik,  
Anhorda suv tiniqdi.

Oq yaktakli qayinlar,  
Taqdi yana zar baldoq.  
Qushlarga gap tayinlab,  
Chag'-chag'laydi zarg'aldoq.

Ufuq orti lolagun,  
Daraxtlardan rang olar.  
Xayrlashib kuz bugun,  
Sochar oltin tangalar.





*Do'stim, ziyrak kitobxonim,  
Sizga bir gap aytaman.  
Qishlog'imga borgan sayin,  
Balalikka qaytaman.*





## YO'LCHI YULDUZ

Qirq beshinchi yil yozi,  
 Egnim yupun – oq surup.  
 Yorilgan tovonimga,  
 Onam piyozdoq surib  
 Holva berib bir chaqmoq  
 – Darningni ol, – der qani.  
 Tongda jo'nab ketardik,  
 Qirga – boshoq tergani.  
 Goh xotirlab shularni,  
 Ko'zlarimdan yosh tomar.  
 Buvim belbog' tikardi,  
 Xizmatida toshfonar.  
 Bezgak xuruj qilganda,  
 Ko'kka chiqib nolishim.  
 Tol bargiga ko'mishsa,  
 Beda bo'lgan bolishim.  
 Ayon edi besh qo'lday,  
 Qapchig'ayning dalasi,  
 Bir o'ngarda to'rqovoq,  
 Unda to'rg'ay bolasi.  
 Boshoq terishdan boshqa  
 Ermagimiz yo'q erdi.  
 Davron aka «Alpomish»ni,  
 Oqshom yoddan o'qirdi.  
 Tetik tortib qolardik,  
 Unutilib ish, charchoq.  
 Bolaligim epkinday,  
 Sezilmay o'tdi har choq.  
 Onam no'xat qovursa,  
 Oqshom payti xo'rakka.  
 Sig'mas edi haddimiz,  
 Bir hovuchdan bo'lakka.  
 Ro'zg'orning tashvishidan,






Bo‘lomagach oshinib.  
 Qo‘yolmadik otamga,  
 Hatto qabr toshini...  
 Keyin ishga joylashdim,  
 Olis edi qishloqdan.  
 Xolam safar xaltamga,  
 Solib talqon, pishloqdan,  
 Daftar to‘la mashqimni,  
 Ehtiyotlab o‘radi.  
 Men iymnib onamdan  
 Oq fotiha so‘radim.  
 Peshonamdan o‘pdi-yu,  
 Bir zum boqib aftimga.  
 Duo qilib, topganin,  
 Bosib qo‘ydi kaftimga.

\* \* \*

Poyezd uchar shimolga,  
 Yo‘rg‘a otdek pildirab.  
 O‘tib ketdi oradan  
 Qirq yil ham g‘ildirab.  
 ... Tilardingiz onajon,  
 Ulkan bardosh va to‘zim.  
 Sizning yorqin ruhingiz,  
 Mening yo‘lchi yulduzim.





## ONAJONIM


Ma'no to'la gapida  
O'ng qo'lida rapida  
Onajonim non yopar.

Chopar edim bog' ora,  
Qo'lida singgi zog'ora,  
Jonajonim non yopar.

...Jang borardi o'lkada,  
Yurt tashvishi yelkada,  
Charog'bonim non yopar.

Otam tishlagan patir,  
Hamon mixda turadir...  
Nurjahonim non yopar.

O'sha to'qochga moslab,  
Zuvala uzib, rostlab,  
Mehribonim non yopar.






## MEN YOQTIRGAN RAQAM

Qirq besh raqam ko'nglimga  
Juda yaqin negadir.  
O'zga songa o'xshamagan  
Zo'r mazmunga egadir.

Bu son ba'zan qolib ketar,  
Karra jadval orasida.  
Biz yashaymiz ulkan uyning  
Qirq beshinchi xonasida.

Qayda ko'rmay bu raqamni  
Dilga shodlik to'lib ketar.  
Kundalikda ular go'yo  
To'rt-besh baho bo'lib ketar.

Hatto maktab peshtoqiga,  
45-lavha osilgandir.  
Ming to'qqiz yuz qirq beshda  
Qattol urush bosilgandir.





## BOLALIKDAN BIR LAVHA

Bahor kelib, yer haydalib,  
Ilik uzilgan mahal.  
Go'ja tansiq, atala-ku,  
Oshdek suzilgan mahal.

Qattol urush oqibati,  
Hali shashtdan tushmagan.  
Omborlar ham qatron bo'lib,  
Sichqon hassa ushlagan.


Qo'shchilarga non yopardi,  
Onam suli uniðan.  
Noliy desa osmon yiroq,  
Nochor, g'arib kunidan.

Suli asli otning yemi,  
Ishlatilmas bo'lakka.  
Onam unni bir necha bor,  
O'tkazadi elakdan.

Chunki qipiqliq, tegirmonda,  
Ketmas edi yanchilib.  
Supra uzra mitti xanjar,  
Tushar qayta sanchilib.

Charsillaydi shuvoq o'tin,  
Tandirga o't qalayman.  
Olovdayin lov-lov yonib,  
Taqdirdan o'pkalayman.

Tuman tog'a to'qochlarni,  
Qo'shchilarga olborar.



# ЎҚИЛРИК

— Qiltiriqdan saqlasin, — deb,  
Onajonim yolborar.

Bir haftaga oltita non,  
Qoldirishar ulushni.  
Yig'lay desam, nomus kuchli,  
Vaqt emas kulishni.

Xo'rlik esa zardobdayin,  
Zimdan sizib boradi.  
Suli nonning qipiqlari  
Tig'day chizib boradi.

Nabiramning non tanlashi,  
Malol kelgach, so'nggi dam.  
Bolalikdan ushbu lavha,  
O'tdi ko'zim o'ngidan...



## CHAKKA

Qirq birinchi yilning bahori,  
Jonimizdan to'ydirdi chakka.  
Jang qilamiz uyning ichida,  
Tomchi bilan yakkama-yakka.


G'altaklarni shiftdan yergacha,  
Dor katakday tarang tortganmiz.  
Chelak, jomga tutashgan ipga,  
O'ziga xos xizmat ortganmiz.

Dahlizda ham bo'zlaydi tomchi:  
— Chiq-chiq!  
Chiq-a!  
Chiq! Chiq-qin! — deydi.  
Ko'rpalarni, yakandozlarni,  
Tez bo'l, yig'ishtir! Yiq-qin! — deydi.

Ko'chib o'tdik mehrob tomonga,  
Buyruq qilar: — Chiq-qin! — deb chakka.  
— Yo'q, jilmaymiz hatto bir qadam,  
Arz-holingni aytgin falakka!..

Joy qolmadni, oyoq bosguday,  
Zeriktirib yubordi g'oyat.  
Bizni uydan quvib chiqolmay,  
Peshin chog'i tindi nihoyat.

Oftob olmos shamshiri bilan,  
Bulutlarni chopib tashladi.  
Barham topdi uch kunlik tashvish,  
Mo'g'or bosgan dillar yashnadi.





## BOSHIM UZRA

To‘rt ovulning taqdirini,  
Qo‘sish tegirmon yechar edi.  
Erta-yu kech navbat kutib,  
Sho‘x-shan yoshlik kechar edi.

Birov arpa, birov tariq,  
Makka solgan linchasiga.  
Ermak uchun qo‘g‘irmoch bor,  
O‘ngib ketgan nimchasida.

Do‘ngtepada don-dunlarni,  
Tozalab tosh, chorlarini.  
«Shamol, otang o‘ldi» deya  
Sopirgani chorlar uni.

G‘oyib tog‘a tagdor so‘zlab,  
Kulib qo‘yar miyig‘ida.  
Piyoz qo‘sghan chavati non  
Ushatilgach qiyig‘iga.

Bir burdadan baham ko‘rib,  
Ushog‘ini ko‘zga surtib,  
Un solingan xurjunlarni,  
Yelkamizga qo‘yar urtib.

Soyguzarda qo‘sish tegirmon,  
Orom ‘bilmay g‘uvullaydi.  
Tobga kelgan chanqovuzday,  
Bir maromda zuvullaydi.

---

<sup>1</sup> Shamolni yo‘qlov.





... Tegirmonning parragiday,  
Chir aylandi yillar, oylar.  
Qurdik yaxshi orzu bilan,  
Dang'illama qo'sh saroylar.

Bir qishloqda o'ndan ortiq,  
Tegirmonlar ishlab turar.  
Xolis xizmat ilinjida,  
«Po'lat otlar» kishnab turar.

Oqibatli, diyonatli,  
Yoppa borar hashariga.  
Ayrimlari sal yo'liqqan,  
«Manmansirash» kasaliga.

Qishloqdoshlar mehri bilan,  
O'sib-unib ko'kargayman.  
Safed Bulon tuprog'ini,  
Boshim uzra ko'targayman.





## BARAKA BOSHOG'I

Oftob olov purkaydi,  
Yer otash nigohida.  
Chirillaydi saraton,  
Gulaxyrining shoxida.

Quyosh cho'g'li gilamga,  
Zarrin ipdan gul tikar.  
Shuvoq, burgan ostida,  
To'rg'ay behol entikar.


Boshoq terar yosh-yalang,  
Bir ho'plam suvga intiq.  
Yelvizakdan yo'q darak,  
Tog'larda yurar tentib.

Do'stim Jamol shu mahal,  
Topdi boshoq-baraka.  
Xirmonga osib qo'ydi,  
Irimchi Qambar aka.

Rais uni olqishlab:  
— Balli, azamat, — derdi.  
Baraka boshoq uchun,  
Bir paroq<sup>1</sup> bug'doy berdi.

---


<sup>1</sup> Bir paroq — o'n kilogramm.





Mo'l-ko'l hosil ko'tardik,  
Daromaddan buyurdi.  
Eshiklar tambalanib  
Don mo'ridan quyildi.

Talpinaman qishlog'im,  
Seni jondan sog'inib.  
Ko'rgim kelar dalangda,  
Baraka boshog'ini.





## SO'NGGI JANG

Qirq birinchi yilning qishi,  
Sovuq chiqqan uchiga.  
Sandalimiz ko'nib qolgan  
O'rik o'tin kuchiga.

Bozillagan olovga  
Bag'rimizni toblaymiz.  
Cho'g' pasaysa, kosovdamas,  
Tovan bilan kovlaymiz.


Uyga kirdik ko'chadagi  
Yaxmalakni unutib.  
Ivib ketgan choriq, shimni,  
Olish kerak quritib.

Eng kattamiz Abduxalil,  
Undan sal-pal cho'chirdik.  
«Urush-urush» o'yinin  
Tor hujraga ko'chirdik.

Labda qamish naychasi,  
Yengil otar — to'pimiz.  
Tugab jiyda danagi  
«Asir tushdik» ko'pimiz.

Birdan sandal ichida,  
Portlab qoldi «Zambarak»  
Qo'lim tegib tushib ketdi,  
Osma chiroq — chambarak!

Sandal ichra turgan qumg'on,  
Pov-pov etdi na'rador.  
«So'nggi jang»da oyoq kuyib,  
Karim bo'ldi yarador...





## FUFAYKA<sup>1</sup>

Ming to'qqiz yuz qirq yetting  
To'qqizinchı mayida.  
Maktabimiz hovlisida,  
Qo'sh chinorning poyida

Karnay chorlaydi bizni,  
Turna qator saflarga.  
Chirmandalar chek qo'yari  
Shivir-shivir gaplarga.

So'z olar ilmiy mudir  
Tartib qat'iy saqlanar.  
Xontaxtaning ustiga,  
Fufaykalar taxlanar.

Ajablanmang, bu ust-bosh  
Atalgan deb kimlarga? —  
Otasi jangda o'lgan  
Bechora yetimlarga

Alfavitga binoan,  
O'qilar ro'yixatlar:  
— Abdullayev, Abrorov,  
Ko'zimdan olov chatnar.

Xuruj qilar bezgagim,  
Sillam qurir zirqirab.  
Qo'rg'oshinday zil yoshdan,  
Kiprik nochor pirpirar.

---

<sup>1</sup> *Fufayka* — paxtalik kalta to'n.



# ЎҚИЛДАР

Zich saflarning orasin,  
Asta surib, ochaman.  
Menga navbat yetguncha,  
Uyga qarab qochaman.

Onam sho'rlik hang-u mang  
Olazarak alanglar,  
Qulog'imning ostida,  
Tanish nomlar jaranglar.

.




## LAYLAKLAR

Mo'jaz hovuz,  
Qo'sh olmurut.  
Bir juft chinor,  
Bo'lmas unut.  
Uchta ulkan,  
Baqaterak.  
Og'a-ini,  
Bo'lsa kerak.  
Laylak kelib,  
Shu chinorga —  
Makon qurdi,  
Ark etdi.

\* \* \*

Bolaligim,  
Uchqur otim.  
Orzularim,  
Qo'sh qanotim.  
O'sha chinor,  
Qo'sh olmurut.  
Uchta terak,  
Bo'lmas unut.  
Ona laylak  
Bola ochib  
Tesha bo'ldi,  
Qanotlari  
Tak-tak degan  
Bayotlari  
Xayollarga  
G'arq etdi...






\* \* \*

O'n yildan so'ng,  
Mo'jaz hovuz,  
Qurib qoldi.  
Bir juft chinor,  
Olmurutlar  
Chirib qoldi.  
Qushlar sozi,  
Tinib qoldi.  
Oq laylaklar,  
Oh, laylaklar  
O'z uyasin  
Tark etdi...

\* \* \*

Ta'mirladik,  
Hovuzni ham  
Zilol suvdan,  
Ko'rdik baham.  
Biroq laylak,  
Bezib ketgan.  
Loqaydlikni  
Sezib ketgan.  
Fikrim tayin,  
Chaqmoqdayin  
Shu misralar  
Yarq etdi.





## YENGIL TORTIB

Ifodalab bo'lmaydi,  
Yurt sog'inchin bir so'zda.  
Yo'l olamiz qishloqqa,  
To'y, bayramda, navro'zda.


Mehr ko'zda, oqibat,  
Nurdan bitgan imorat.  
Ulug'larni yo'qlagach,  
So'ng boshlanar ziyyarat.

Choyxonaga fayz kirib,  
Avjga chiqar askiya.  
Sabab, gapga chechanlik,  
Qishlog'imga xosku-ya...

Davra boshi Zohidov,  
Choydan bosib ho'playdi.  
O'tganlarni xotirlab,  
Oqillarni yo'qlaydi.

Yaxshilarni davrada,  
«Bo'lsaydi» – deb ilinar.  
Yalangto'sh Yo'ldosh tog'a,  
O'rningiz ko'p bilinar.

Bizga madad bag'ishlar,  
G'oyib otaning ruhi.  
Yozar ko'ngil g'uborin,  
Payrovchlarning shukuhi.



# Ўзбек тилингизни сизга

Yodlaymiz ixlos bilan,  
Qozoqov domla Sizni.  
Sozanda, navozanda,  
Bozorboy akamizni.


Xizmat kutar Toshkentda,  
Nechun yo'lga tushmayin!  
Duo bilan rahmatdan,  
Yengil tortib qushdayin.



## SAFED BULON

Safed Bulon  
Do'ppidek tog'li qishloq  
Mevali bog'li qishloq  
So'zamol, san'atga o'ch  
Askiyaga chog'li qishloq  
Sal do'zali, sal irimchi  
Armonli — dog'li qishloq  
Olisdagi o'g'lon uchun  
O'ta ardoqli qishloq.

Safed Bulon  
O'ng'or tog'ning kunjida  
Qapchig'ayning pinjida  
Har tup olma, nokiga  
Suv ulashar lunjida  
Ajib bardoshli qishloq  
Arzikli, toshli qishloq  
Bir ko'cha — qo'sh respublika  
Qon-u qardoshli qishloq.






## DOSTONCHI DAVRON TOG‘A

Dostonchi Davron tog‘a,  
Komil va komron tog‘a,  
Davrada chaq-chaqlashar.

Gap ochsang «Ravshanxon»dan,  
Ruhlanib yonib jondan,  
...Jaynoq bilan gaplashar.

Bizning ovul tomonda,  
Do‘stim, ayni zamonda,  
Uch dostonni yoqlashar.

«Alpomish»u, «Go‘ro‘g‘li»,  
«Kuntug‘mish»day zo‘r o‘g‘lin,  
Ko‘z nuriday saqlashar.





## YURTDOSHLARIMGA MAKTUB

Boshingizga ish tushsa,  
Yo'qlaysiz bizni koyib,  
— Nima qilib yuribdi,  
Toshkentda Meliboyev?..


— Ko'pdan buyon kelmaydi,  
Boqjon bilar Axror.  
Asqotmaydi xizmati,  
Poytaxtda nima bor?..

— Talay yumush bitardi,  
Ha, — deb qo'ysa Odiljon.  
Kesatiq, ta'nalarda,  
Balki sal-pal bordir jon.

— Ismoiljon jarroh-chi,  
«ToshMI» degan puchmoqda.  
Unga ham ish topilardi,  
O'zimizning qishloqda.

— Imkonidan juda oz,  
Foydalanan Ergashev.  
Ko'rsatishar yo'l-yo'riq,  
Shu asnoda tergashib.

— Tursunboy Adashboyev,  
Keladi yilda, oyda.  
Hovli-joyi qarovsiz  
She'ridan nima foyda?..



# ЎҚИЛДАРЛАР

To'rajon tinch, omonmiz,  
Ey, aziz yurtdoshlarim  
Serandisha qon-qardosh,  
Omon bo'lsin boshlaring!..

E'tirozlar o'rinali,  
Bizlardan naf tegar kam.  
Mushkul paytda Sizlarga,  
Bo'lmaymiz dori-malham.

Yashayapmiz yurakni —  
Sizga gulday tutgancha.  
Ancha-muncha tashvishni,  
Ichimizga yutgancha.

Achchiq-tiziq so'zlarga,  
Bo'g'izgacha botib biz  
Qishloqning sha'ni uchun,  
Mehnat qilib yotibmiz.




## ONAMNING SO'NGGI ILTIMOSLARI

— So‘zlarimni qo‘log‘ingga  
Ilib olgin axir san.  
Shahar olis, eshitmaysan,  
O‘ng‘or tog‘dan chaqirsam.

Bersin senga bobolaring  
Bardoshini, sabrini.  
Ziyorat qilib turgin,  
O‘g‘lim, otang qabrini.

Tegirmamonning toshidek  
Yil aylanar o‘rtadan.  
Mendan keyin qishloqqa  
Kelmaysan, — deb qo‘rqaman...






*Yosh do'stlarim, bolakaylar,  
Eng pokiza, sho'x-shandir.  
Shu boisdan kulgulari  
She'rlarimga ko'chgandir.*



## MAQTANCHOQ CHUMOLI

O‘q ariqdan  
Chim olinib,  
Ini ko‘chdi  
Chumolini.  
Uymalashib  
Hayron boqdi.  
Besh, o‘ntasi  
Suvda oqdi.  
Bir chumoli,  
Shu payt qarang,  
Chiqib oldi  
Toshga arang.  
Qo‘l-oyog‘i  
Qaltiraydi.  
Tovonlarin  
Sal tiraydi.  
Tol chivig‘i  
Bo‘ldi narvon  
O‘tib olgach,  
U bearmon  
Do‘sstariga  
Maqtandi xo‘p:  
— «Oramizda  
Qo‘rqoqlar ko‘p,  
O‘rnak olsa  
Bo‘lar mandan  
Suzib o‘tdim  
Okeandan...»



# Г‘ОЗ КАРНАЙЧИ БО‘ЛМАСИН

## Г‘ОЗ КАРНАЙЧИ БО‘ЛМАСИН

Bola borki, ertakka  
Seri shiqiyoq, sertalab.  
Bobom cho‘pchak aytadi,  
Hasanboyni erkalab.


— Qarg‘a qaqimchi ekan,  
Chumchuq chaqimchi ekan,  
G‘oz-chi, karnaychi ekan,  
O‘rdak surnaychi ekan.

— G‘oz karnaychi bo‘lmasisin,  
O‘rdak surnay chalmasin.  
Karnaychi Shokir tog‘am,  
Yana ishsiz qolmasin...



## TADBIRKOR JO'JA

Shatir-shutur yomg'ir quyib,  
Tarnovlardan suvlar oqar.  
Tuxumidan chiqqan jo'ja,  
Olazarak, hayron boqar.  
Toy-toy bosib chiqdi sirtga,  
Chorlar uni yo'lak, ko'cha.  
Olib tuxum po'chog'ini,  
Zontik qilib ketdi jo'ja.  
Yoqa ushlab qoldi Xo'roz,  
Hayron G'ulg'ul, Laylak daroz.





## MAYIZ

- Oting nima, qizaloq,
- Menmi, tog'a, Lolaman,  
Lolaman.
- Ol mayizdan bir hovuch
- Yo'q, odobli bolaman,  
Ha, odobli bolaman  
Hovuchingiz kattaroq,  
Siz bersangiz olaman,  
Olaman...





## XAYRLASHMAY

Tolning bargi suvgaga tushib,  
Qayiq bo'ldi.  
Bu ayniqsa Chumoliga  
Loyiq bo'ldi.  
Qo'sh qirg'oqni to'lqin yalab,  
Ko'kka sapchir.  
O'zi yolg'iz eshkakni ham  
Eshar abjir.  
Oshnalari qoldi gap-so'z,  
Tayinlashmay.  
Jo'nab ketdi Chumolivoy  
Xayrlashmay.





## CHAQIMCHINING JAZOSI

Sinchalak bilan Chittak,  
Yashardi inoq, ahil,  
Tashvishga qo'ydi qittak –  
Ularni chumchuq baxil.  
Hasadi haddan oshib,  
U yon bu yon chopardi.  
Va o'rtada gap tashib,  
Shundan lazzat topardi...  
Birovga chuqur o'yan  
Chumchuq makri bilindi.  
Mansurjon do'ngga qo'yan,  
Pat tuzoqqa ilindi.





## NASIBANING OLMASI

Nasibaning olmasi,  
Tushib ketdi ariqqa.  
Tutqich bermay o'ynaydi,  
O'xshab oltin baliqqa.  
Sodiqjon ko'rib qolib,  
Olmani ushlab berdi.  
Rahmat aytib Nasiba,  
Yarmini tishlab berdi.





## TUGAB QOLDI


1

Murod bilan  
Birga biz  
Borgan edik,  
«Tir»ga biz.  
Otib ko'rsam,  
Tulkiga.  
Tegmay, qoldim  
Kulkiga.  
Mo'ljal olsam,  
Mushukka.  
O'q sanchildi,  
Eshikka.  
Doirada,  
Jo'n raqam.  
Yetti, sakkiz  
O'n raqam.  
Urolmadim  
Bitta ham  
Chetga qochar,  
Muttaham.  
Yonlab o'tar,  
Chizig'in.  
Avji o'yin,  
Qizig'i  
Tugab qoldi.






Tangamiz.  
Bergan edi  
Yangamiz.  
Sovun bilan,  
G'altakka.  
Qolar bo'ldik  
Kaltakka...





## TUGMA


Savri xola qo'shniga  
Chiqqanida elakka.  
Kamzulining tugmasi,  
Tushib qoldi yo'lakka.  
Chumolilar to'planib  
Majlis qurar shoshib  
— Bir, ikki, uch! Ko'tardik,  
Tegirmonning toshini!..





## ARQON QILIB...

Yumronqoziq  
Izlab oziq  
Yotmay salqin-soyada  
Yurar qovunpoyada.  
Tipratikon odaticha  
Olazarak boqib picha,  
Bir ilonni sudrab borar.  
Yumron so'rар:  
— Yurib doving,  
Baroridan kepti оving.  
— Yo'g'-ey, oshna, unday emas —  
Tipratikon nolib ketdi —  
Ilon yekish odatim,  
Allaqachon qolib ketdi —  
— Yo quritib qishda uni  
Yanchasanmi talqon qilib.  
— Do'stim, o'tin bog'lash uchun,  
Ishlatamiz arqon qilib...





## SICHQONNING ORZUSI

O'sib-unsam,  
Kuchga to'lsam  
Men-chi mushuk bo'laman.

Kalamushning –  
G'alamisning,  
Qirib, dodin beraman.

Deya so'ylab,  
Asta o'ynab,  
Sichqon chiqdi eshikka.

O'sha onda,  
Peshayvonda  
Ko'zi tushdi mushukka.

Shoshganicha,  
Qochganicha,  
Kirib ketdi teshikka...






## BAHS

Qo'yni qo'shib podaga,  
Ayri minib xodaga,  
Sanjar, Ashur.

Bahslashur:

- In solishda Qarqunoq  
Chumchuq, Chittakdan no'noq.  
Nor tog'amning so'zicha  
Eng dangasa Musicha.
- Yo'q, Qarqunoq.
- Yo'q, Musicha
- Sen bilmaysan,  
O'yla picha.
- Nega bilmay?  
Axir, shoshma.
- O'pkangni bos!
- Haddan oshma!  
Shu payt xoda qars sinib,  
Uzildi bahs-tortishuv.  
Zo'rg'a chiqdi anhordan,  
Bir-birini tortishib...





## JOYIGA OSAYAPMAN

Nazmi xola ko'rpa qavib,  
O'tirardi supada.  
Nabirasi xom olmani,  
Uzib solar lippaga.


— Shoxda nima qilyapsan?  
Pastga tush Xosiyatxon!  
— To'kilgan olmalarni,  
Joyiga osayapman...





## O'RGATYAPMAN

Chiy-chiylashib jo'jalar,  
Bedazorga qochar kirib.  
Kuchuk esa ularni,  
Quvlar, tishlar aylantirib.  
Mushuk so'rab qoldi undan:  
— Avval bizga mazaydi.  
Sen kelding-u, jo'jalar,  
Kundan-kunga ozaydi.  
— Menmi, boshqa kuchuklarday,  
Daydib yurmay ko'chalarda  
Tulkiga chap berishni,  
O'rgatyapman jo'jalarga.





## PASHSHA

O'rin bilan Mirabbos,  
Sumalak yalashardi.  
Bir pashsha g'ashga tegib,  
Shirani talashardi.

Xira pashsha quvgancha,  
Na unadi, na ko'ndi.  
Birdan u O'rinboyning,  
Burniga kelib qo'ndi.

Mirabbos ko'zin qisib,  
— Shoshma, — dedi O'ringa.  
Qiziq, hash-pash deguncha,  
Bir mushtladi burunga.

Pashsha-ku tutqich bermay,  
Uchib ketdi zing'illab.  
O'rinboy burni qonab,  
Yig'lar edi ming'illab...






## «SH» BILAN «CH»

«Arra», «Karra» so‘zlarini,  
Burro aytar ukam Botir.  
«Sh» bilan «Ch» harflariga,  
Biroz tili kelmayotir.

— Pishloq yedim qishloqda,  
Shermat yurar «Chayka»da.  
— Pisloq yedim qisloqda,  
Sermat yurar «Sayka»da.


— «Chinoraning chinnisi bor,  
Chinnisida shinnisi bor»  
— Sinoraning sinnisi bor,  
Sinnisida sinnisi bor.  
Ana shunday jumlalarni,  
Sal qiynalib aytar Botir.  
Lekin, juda mashqi baland,  
Olmang undan xavotir.





## HAYVONOT BOG'IDA


Hayvonotlar bog'ida,  
Beda kemtir quyonlar.  
Qirg'ovullar sayr qilib,  
Xotirjam yurar donlab.  
Ellikta erur boshi,  
Bir yuz qirqta oyog'i,  
Qancha quyon, qirg'ovul,  
Toping, o'g'lim buyog'in?..





## BOBO, QANCHА YOSHDASIZ?

- Bobo, kenja nabirangiz  
Necha yoshga chiqdi hozir?
- Kenjam Nazir,  
Men qanchaga chiqqan bo'lsam,  
Shuncha oylik bo'ldi, bo'tam.
- Siz qanchaga chiqdingiz?  
Qaytib-qaytib so'rар Javlon.
- Yetmish sakkiz yoshga chiqdik,  
Nabiramiz ikkovlon.
- Vuy, qiziq-a, xo'sh qanday?
- Mening yoshim unikiga qo'shganda...  
Kim topadi Ro'zmat bobo  
Qancha yoshga to'lganligin?  
Nabirasi Nazir esa  
Necha oylik bo'lganligin?..






## HALI YOSH-DA

— Doskaga chiq, Mukambar,  
Bo‘rni ol-chi, xo‘s, qani.  
Bitta misol ishlaymiz,  
Uchga uchni qo‘s, qani?

Lekin oddiy misolni  
Yecholmadi Mukambar.  
Sodiq aka so‘rab qoldi:  
— Ayt-chi, qancha ukang bor?

— Oltita.  
— Ular birdan konfet yesa,  
Bo‘lar nechta?  
— Beshta.


— Hech-da!  
Shoshilmasdan o‘yla boshda.  
— Bitta ukam konfet yemas.  
Hali yosh-da...





## O'N KAPTAR


O'ng'or tog'da  
O'n kaptar  
Sal jaydari,  
Jo'n kaptar.  
O'ttiz uchta  
Bolasi  
Donlar o'n uch  
Qorasi  
To'qqiztasi  
Olmay tin  
Silab-siypar  
Qanotin.  
Uxlar qancha,  
Polapon?  
O'ylab ko'rgin  
Bolajon.





## OQ SHAFTOLI

Bog' ko'chada,  
Oq shaftoli.  
Ellik uchta  
Toq shaftoli  
Sobir uni  
Qoqdi kechda  
Solijonga  
Tegdi beshta  
O'ta shirin,  
Xushbo'y edi  
Yettovini  
Norboy yedi.  
O'n to'rttasin  
Bog'bon oldi!  
Xo'sh, chelakda  
Nechta qoldi?





## YETMAY QOLDI

(Olim Jo'raboy Ikromovga)

Ko'pkariga hozirlik  
Borar dala tomonda.  
Uloqchilar yetakchisi  
Buyruq berar shu onda:


— Har bir toyga bittadan,  
Minsin abjir chavandoz.  
Ana shunda do'stlarim,  
O'yin bo'lar quvnoq, soz.

Topshiriqni bolalar  
Bajardilar tez shu choq.  
Attang, bitta o'g'longa,  
Yetmasdan qoldi toychoq.

— Yo'q, bo'lmaydi yigitlar,  
Kengashamiz kelinglar  
Hozir bitta ulovga,  
Ikkitadan mininglar.

Ko'pkarining sarkori,  
Tashvishlanib alanglar.  
Endi bo'lsa bitta toy,  
Ortib qoldi qaranglar.

Boshliq muhtoj yordamga,  
Do'stlar, ayni zamonda.  
Qancha bola va Toychoq,  
O'ynar dala tomonda?





## TO'RT AMAL


Dars o'tilar o'rmonda,  
Qatnashmagan armonda.  
Chinor osti pakkidir,  
Muallimi Hakkadir.  
Arifmetik to'rt amal  
O'rgatilar galma-gal.

## OLUV

Yong'oqqa o'ch Olmaxon,  
Hadeb boshin qashiydi.  
Uchdan to'qqiz olinmagach,  
Uyga nima tashiydi?  
Ko'rsatmaydi Qarqunoq,  
Shpargalka qorasin.  
Bir ortiga nol qo'yib,  
Topdi oxir chorasin.

## QO'SHUV

Doskadagi yozuvlarni,  
Dumida artib.  
O'rganmoqda bu amalni  
Mushuk batartib.  
Qo'shib borgach, sanoq son  
Boradi ortib.  
To'g'ri topsa o'nta sichqon  
O'ziga tortiq.






## KO'PAYTIRUV

Quyon hisob bobida,  
Eng oldingi marrada.  
Vazifani zumda ishlar,  
Oddiy usul — karrada.  
Tulki atay Quyondan  
So'rab qoldi qo'qqisdan:  
— Uch joyda uchta sabzi?  
Bu juda jo'n — to'qqizta.  
— Olti karra olti-chi?  
O'yala, qancha bo'ladi.  
— O'ttiz olti karamga,  
Oltita qop to'ladi.


## BO'LUV

Qizilishton nazdida,  
Bo'lish og'ir ko'rinar.  
Ammo sakkiz ikkiga,  
Juda oson bo'linar.  
Tumshug'ida hisoblab,  
Ter to'kar ancha-muncha.  
Noldan nolni ayirsa,  
Qoladi teshik kulcha.  
Besh ikkiga... mumkin emas,  
Sizga ayon tushuncha.  
Bular uyga vazifa,  
Dars tugadi buguncha.





O'tdi yoshlikning alg'ovi-dalg'ovi  
Go'yoki tush,  
go'yoki tongdag'i tuman...  
1959-yil.



Qishlog'imizning sobiq raisi  
Abdullahon Shailov bilan.



Toshkent telestudiyasida she'rxonlik. 1962-yil.



Qirg'iz shoiri Baydulda Sarno'g'ayev va taniqli  
manaschi Urkash Mamalaliyev.



Ona va bola — gul bilan lola. 1975-yil.



Ustoz Mirtemir, u kishining yonida Shoislom Shomuhamedov va Qarimshoq Toshboyevlar bilan. Bishkek shahrida. 1970-yil.



Uchrashuv oldidan. Shoir Safar Barnoyev va boshqalar.



Qozoq shoiri Qodir Mirza bilan. 1976-yil.



Kulish mana bunday bo'ladi. Erkin Vohidov bilan.  
O'sh, Sulaymon tog'ida, 1975-yil.



Gurung... 2000-yil.



Mehmonda. Shahrixon. 1987-yil.



Safo Malehon, Anvar Obidjon va Abdurahmon Akbarlar bilan. 2003-yil.




O'g'il-qizlar va nabiralar davrasida. 1999-yil.



## KIM AYTADI?


Jam bo‘lishib hayvonlar,  
 Qil o‘tmay orasidan.  
 Hasratlashib o‘tirar  
 Har biri o‘z bolasidan.  
 Tulki so‘zlar, – farzandim  
 Sodda, so‘tak, to‘pori.  
 Olmaxon der, – meniki  
 Qo‘pollarning qo‘poli.  
 Ot aytadi, – qulunim,  
 Hech epi yo‘q chunoqdir.  
 Eshak maqtar, – xo‘tigim  
 Zotli, qamish qulqoqdir.  
 Bug‘i xursand, – bizniki  
 O‘ta yuvvosh, muloyim.  
 Boz ustiga insofli  
 Ko‘z tegmasin iloyim.  
 Yo‘lbars mamnun, – o‘g‘ilcham  
 Oqibatli, mehribon.  
 – Kenjam ozib ketdi, – deb  
 Tashvishlanar karkidon.  
 Fil yupatib do‘stlarin  
 Ko‘taradi ko‘nglini.  
 Xo‘s, kim aytar ularning  
 Shu gaplari to‘g‘rimi?..





## ISHONMASANG...


— Ma'nosi bir so'z nima?  
 — Soya bilan ko'lanka.  
 Egizakdir hamisha  
 Aytishuvlar — o'langa.  
 Bilasizmi, aslida  
 Olis joyni der uzoq.  
 Baland yerni tepalik,  
 Qopqonni — temir tuzoq.  
 Quyosh — oftob, ko'cha — yo'l,  
 Qulqulchin — telpak — tumoq,  
 Erkalatib quyonni —  
 Deydilar shalpangqulqoq.  
 Ensiz — qisqa, enli — keng.  
 Jarlik-chi o'ngir — kamar.  
 Tog' orasi — qapchig'ay,  
 Oymoma — shamsiqamar.  
 Bir mazmunni anglatar,  
 Chenov — o'lchov-tarozi.  
 Qolgan so'zlarni yozib,  
 Muallimni qil rozi.





## BESHTA ARRA


Raqamlarning yordamida to'rtta amal,  
Daftaringda yozilganday KARRA bo'lar.  
Tegirmonda don-dunlarni tortib ko'rsang,  
Maydalaniб – un bo'lar, ZARRA bo'lar.  
Kim o'zarga poyga qo'ysak manzil so'nggi,  
Chavandozni aniqlovchi MARRA bo'lar.  
Sabzavotning nomlari ham turfa xildir,  
Bodiringning jaydarisi TARRA bo'lar.  
Talay so'zning ma'nosini anglab yetding,  
Mirshab tutgan tayoq esa DARRA bo'lar.  
Bu so'zlardan bosh harfini olib qo'ysak,  
Duradgorga birmas, beshta ARRA bo'lar.





## CHUMCHUQLARGA UYADIR

Ashraf aka ANOR so'ydi,  
Anormisan-anor deysiz.  
Har donasi gavhar misol,  
Yalt-yult etar FANOR deysiz.  
«A» harfini olgan edik,  
Yo'q narsadan BOR bo'ldi.  
Barchamizga tanish hayvon,  
Qo'sh o'rakchli NOR bo'ldi.  
Bolakaylar bilib qo'ying,  
Nor degani TUYADIR  
«T» harfini qisqartirsak,  
Chumchuqlarga UYADIR.





## FARQI BITTA HARFDADIR


BOL deganda tamshangaysiz chorasiz,  
Bitta harfdan kamaytirib borasiz.  
«OL» so‘zini eshitganda mezbondan,  
So‘ng asaldan nonga surtib olasiz.  
«O» harfini almashtirsak «Yo» bilan,  
Tulpor-toyga u yelpig‘ich «Yol» bo‘lar,  
«T» tirkalsa soya-salqin «Tol» bo‘lar,  
«Ch» ni qo‘shsak to‘qson yoshli «Chol» bo‘lar.  
Almashtirsak agar «D»ni to‘satdan,  
To‘qson yoshli bobom qaddi «Dol» bo‘lar.  
To‘g‘ri kelsa, «X» harfini qo‘llashga,  
Xolidaning yonog‘ida «Xol» bo‘lar.

\* \* \*

Juda boydir ukajonlar so‘zimiz,  
Endi davom ettiramiz o‘zimiz.  
BULOQ doim tuproqni enchilagan  
«ULOQ» esa sho‘x jonivor tinchimagan.  
«OQ» aslida rizq-ro‘zimiz un va sutdir,  
Yoki momiq paxtadir — ust-bosh, qutdir.

\* \* \*


Ziyrak, zukko bolajonlar,  
O‘ylab ko‘ring-chi biroz.  
Navbatdagi yetti jumboq,  
Sizlar uchun qulay, mos.  
«Qayiq», «Qalqon», «Hakka», «Lola»,  
«To‘ra», «Anor», «Ari», «Chana».  
Bitta harfni almashtirib,  
O‘zga bir so‘z topping yana...





## BO'KIB QOLGAN


— Kim birinchi topadi,  
Ot nimaga yotadi?  
— Balki charchab qolgandir,  
Shunga yotib olgandir.  
— Bo'kib qolgan, — der Egam, —  
Yem-xashakdan ko'p yegan.  
Dilfuza so'zlar: — Nahot?  
Sizga aytsam o'sha ot  
O'tirishni bilmaydi.  
Gulshan momo: — Balli! — deb  
Uni o'pib jilmaydi.





## O'PKANI QO'LTIQLAMAY

O'sib yotar qulupnay,  
Tarvaqaylab, chirmashib.  
Yemish izlab Shilliqqurt  
Bargga chiqdi tirmashib.  
Imillab yurish asli,  
Shilliqqurtga juda mos.  
Oyog'i toyib birdan  
Yig'ilib tushdi bexos.  
Piching qilar Toshbaqa:  
— Ehtiyyot bo'lish kerak.  
O'pkani qo'ltiqlamay,  
Mendayin yurish kerak.






## XOLIS XIZMAT


Kana bosdi qarib qolgan Echkini,  
 Qolmagandi yo‘qlaguvchi hech kimi  
 Echkil nochor Chug‘urchuqqa yolvordi,  
 Xizmatiga oq tivitdan olbordi.  
 Tivitini olmay qaytib berishdi  
 Kanasini bitta qo‘ymay terishdi.  
 Shodligining sira cheki yo‘q edi  
 O‘z tilida ma’rab duo o‘qidi.  
 Xursand bo‘lib hafta o‘tmay Echkivoy  
 Oq tivitdan to‘rtta qo‘lqop to‘qidi.  
 Andozaga oldi o‘zin tuyog‘in  
 Chug‘urchuq ham qarab uyoq-buyog‘in  
 – In bo‘lar, – deb nabiramga, bolamga  
 Rahmat aytdi chevar Echkil xolamga.



## O'RGIMCHAKNING HIYLASI

Dor katakli ipak yo'ldan,  
G'irillab.  
Langarcho'psiz chopib yurar,  
Zirillab.  
Sehrgarday og'zidan ip  
Chuvalar.  
Chig'irchiqda o'z-o'zini  
Quvalar.  
Pastga sakrar ming maqomda,  
Yon tashlab.  
Huzur qilib belanchakda  
Yonboshlab.  
O'ljasini yubormaydi,  
Qochirib,  
Bir pashshaning unga og'zi  
Ochilib.  
Dedi, – foydam tegib qolar,  
Senga ham.  
Dor o'ynashni o'rgatib qo'y,  
Menga ham.  
– Qani yur, deb – uyi tomon  
Boshladi.  
So'ng «mehmon»ni shiftga,  
Bog'lab tashladi.





## SERGAP QIZ

Olis yerning ishi og‘ir,  
Uyga qilsam qo‘ng‘iroq,  
Go‘sakni olar qizim,  
O‘zga choram yo‘q, biroq...

— Salom!  
— Salom!

So‘zlab ketar,  
Qanday o‘qiyotganin,  
Qo‘shti bola gilosga  
Tosh va kesak otganin.

— Esingizdan chiqmadimi,  
Tug‘ilgan kunim, dada?  
— Yodimda bor, shakar qizim,  
Unutganim yo‘q, ha-da!..  
— Keyin lenta, tuqli, paypoq,  
Yana rangli qalamdan...

O‘rtoqlarim ko‘rgach uni,  
Ichi kuysin alamdan.  
Haligi-chi, atlas ko‘ylak,  
Menga rosa yarashar.

Oying qayda?  
— Buvim ikkov,  
Tandirga o‘t qalashar...  
Telefonchi qiz tugadi, — der  
O‘n minutlik naqdingiz

— Allo! Allo!  
— Kechirasiz!  
Tamom bo‘ldi vaqtningiz...

# ЎҚИЛУСЛАР

## O'N IKKI VARAQ DAFTAR

Navbat husni xatlarga  
Yozuv «L-o-l-a o-sh» bo'ldi.  
Poyezd izi daftarga  
Harflar boshma-bosh bo'ldi.

Pero bexos qitirlab,  
Qog'oz chilpib, qatlandi.  
Hijjalayman pichirlab.  
Sal qiy Naydi, chaplandi.

«Lo-la» «oshni» olmasdan  
«A» qulog'in qayirdi.  
«O» harfi tushgach qasddan  
Darhol yirtdim, ayirdim.

Nosir nay partadoshim  
Barmoq bosdi, kir qildi.  
— Afsus, — der Abduhoshim  
Yana uch bet yirtildi.

O'n ikki varaq daftar  
Xolis xizmat etmadi.  
«Lo-la osh o-l» so'zini  
Yozish uchun yetmadi.




## O'CHIRG'ICH

Mening ismim o'chirg'ich,  
Bandman doim ish bilan.  
Maktab, uyda erta-kech  
Yashayman tashvish bilan.

Shoshilib daftaringga  
Siyoh surtding, chaplading  
Har galgidek daftarni,  
Dog'-dug' etding, «boplading».

Xolis xizmat qilaman,  
O'chirib dog', kuyani.  
To'rt oyoqli tovusni,  
O'rakchi yo'q tuyani.

Oshnam sahiyligingdan  
To'yib ketdim toza man.  
O'zing ko'rib turibsan,  
Soat sayin ozaman.





## OYIM O'ZI

(*Mashhur rassom H. Rahmatullayevning suyukli qizi Zulayhoga*)

Bolajonlik ayol zotiga,  
Faqat Momo Havodan yuqqan.  
Shu boisdan onalar zotan,  
Durdaiyin sof, sutday tiniqqan.  
O'g'il-qizin tashvishi bilan  
Qirqa joni borday chiniqqan.  
— Ukangni ber, — degan lol qolar,  
Qizaloqning javobi uqqan.  
— O, yoqarkan, ukamni axir,  
Oyim o'zi qiynalib tuqqan...



## OVDA

Ovga chiqdim tozi bilan,  
Boqqan edim yozi bilan.

Oq libosdan dala-adir,  
Tayoq ushlab borar Qodir.

Ol, ketdi deb qoldi birdan,  
Itim chopib o'tdi qirdan.

Menga sapchib hurar tozi,  
«O'lja» bilan turar tozi.

Borib ko'rsam yaqiniga,  
Eski po'stak taqimida...





## SHALOP-SHULUP


Bog' ko'chada ko'lmakchani  
Kechar Tohir shalop-shulup.  
O'tgan-ketgan miyig'ida,  
Kulib qo'yari, qarab turib.

— Qoyil, — deya kimdir uni  
Yelkasiga qo'yari urib  
Unga sari hovliqadi,  
Halqob yerda shalop-shulup.

Bolakayni qutlaganday,  
Olaqanot sayrab turar.  
Go'yo «Tohir, bo'sh kelma» deb,  
Olqish aytib, qayrab turar.

Bola faqir ko'lmakchani,  
Loyqalatar shalop-shulup.  
Dolim bobo tol xivichni  
Panalatib, shartta yilib.


Savay ketdi adab cho'pda,  
Tizillatib ayab turib.  
Tohir esa juftak urdi,  
Shalop-shulup, shalop-shulup.





## JIRAFА— NEGA XAFA

Dumi bilan yonboshini cho'tkalab  
Jirafa der: — tabiatdan o'pkalab.  
— Bo'yim hatto olti metr bo'lsa ham,  
Suv ichaman ming azobda cho'kkalab.





## ZERIKISH


- Nima bo'ldi, mushukvoy,  
Turging kelmas erikib?
- Qopqonlar ko'p, sichqon oz,  
Qoldik juda zerikib.



## BURNI QONAB

Kun botishi Kozimni,  
Juda hayron etibdi.

— Dada, quyosh dumalab,  
Tog' boshiga yetibdi.  
Yiqilibdi shekilli,  
Burni qonab ketibdi...





## QOVUN YEDIK


Men va To'lan  
Kuni bilan  
Uyda edik  
Qovun yedik  
Tilib-tilib,  
Maza qilib.  
Dadam yedi  
Kosa qilib...



## MASLAHAT

Kartoshka ekayotgan  
Bobosiga Mirhaydar.  
Maslahat qatorida  
Quydagi gapni aytar:


— Siz uni chuqur yerga,  
Ko'mib qo'y mang-da boshdan.  
Buvim sho'rva qilsalar,  
Yurasiz topolmasdan...





## CHO'NTAKNING TESHIGI

- Cho'ntagingdan tushib qolsa,  
Sen to'plagan tiyin-tanga.  
Aytib ber-chi Shorasul,  
Nima qolar kissangda?!
  
- Yig'ib yurgan tangalarim,  
Jami to'qson besh edi.  
Unda qolar og'ayni,  
Cho'ntagimning teshigi...






## DAYDI KUCHUK

(*Daniel Xermsdan*)

Peshin chog'i daydi kuchuk,  
Darvozadan hatladi.  
Mizg'ib yotgan Olaparni,  
Ko'rib ko'zi chatnadi.  
Ko'ppak zarang soyasida,  
Zanjiri ikki quloch.  
Suyak yotar sochilib,  
Olay desa yo'q iloj.  
Boy bermayin fursatni,  
Hujumga o'tdi kuchuk.  
Bu daydi itvachchaga  
Turganday ko'zi uchib.  
Hurib, sapchir o'z o'rnida,  
Yumrondayin aylanib  
Zanjir qoldi bir qarich,  
Halqumidan boylanib.  
Labin yalab, g'ingshir ko'ppak,  
Suyagini oldirib,  
Daydi kuchuk juftak urdi  
Yo'lni chappa soldirib...






## «ASSALOMNI» QILMAS KANDA

Nabiramiz,  
Musharrafxon.  
Tengdoshlari,  
Ichra gapdon.

«Assalom»ni,  
Qilmas kanda.  
Ziyrak, chaqqon,  
Sal arzanda.

Qaymoqqa non,  
Botiradi.  
Yig'lashni ham  
Qotiradi.

Konfet oshmas,  
Musharrafdan.  
Qo'lin cho'zar,  
O'ngdan-chapdan.





## ISHLARIM KO'P


Halimaxon qo‘g‘irchog‘in,  
Yotqizib belanchakka.  
Zavq bilan alla aytar,  
So‘rida o‘zi yakka:  
— Tezroq uxla, oppog‘im,  
Ishlarim bor bir talay.  
O‘pchigingni so‘rib tur,  
Men qaymoqni yeb olay...





## SHAFTOLI

Kun nuridan taft olib,  
Hil-hil pishdi shaftoli.  
Xolvoy ko'rib to'satdan,  
Tosh irg'itib o'shatdan,  
Soldi qo'yin-qo'njiga.  
Bir donasi lunjida  
Bo'lmas edi shoshmasdan,  
Lekin devor oshmasdan,  
Ko'ylagin tashlab qochdi,  
Qornini qashlab qochdi.





## BESH PANJA

(*Qadim o‘yinlardan*)

O‘ng qo‘limda besh panja  
Chap qo‘limda besh panja.  
Har birining ismi bor  
Inoq, ahil, esh panja.  
O‘ng qo‘ldagi:  
Bashmaldoq,  
O‘rta terak  
Xo‘ja merak  
Kenja buvak  
Chalg‘i tutib birlashib,  
Bug‘doy o‘rar sirlashib.  
Chap qo‘ldagi panjalarim  
Boshqlarni dastalaydi.  
Bashmaldoq  
Baramaldoq  
O‘rta terak  
Xo‘ja merak.  
Kenja buvak  
Yer va dehqon sha’niga  
To‘rg‘ay qo‘shiq bastalaydi.





## SHOSHMAY TUR


Qir-adirlar egnida  
Bobomning oq yaktagi.  
Sirg'anishga bop bo'pti  
Do'ngtепaning tag-tagi

Hushtak chalar izg'irin,  
Dov-daraxtlar bulduruq.  
Darvozaga qorbobo  
Surat chizgan kuldirib.

Butun boshliq o'rmonni  
Oynakka qo'ygan joylab.  
Tulki pishloq yesam deb,  
Qarg'ani turar poylab.

To'qayzorning chetida  
Qo'shtegirmon, tanish qir.  
Quyon juftak rostlaydi,  
Quvib boradi qashqir.

Laqma bo'ri, shoshmay tur,  
O'z boshingga yetasan.  
Quyosh chiqsa holing voy,  
Zumda erib ketasan.






## DILMURODNING VAQTI YO'Q

Elagin qoqdi bulut  
Rosa guppa-guppalab  
Dov-daraxtni bezadi,  
Oppoq, zarrin upalar.


Do'ng ko'chada bolalar  
To'ymas chana tortishga.  
Dilmurodning vaqt yo'q,  
Hatto burun artishga.





## E'TIROZ

Erta tongdan Zarg‘aldoq,  
 Bir xushxabar ulashar.  
 Madaniy turmush uchun,  
 Qushlar qanday kurashar?  
 Qilingan ish bobida,  
 Hisob berdi Qarqunoq.  
 Yutug‘imiz bir talay,  
 Guvoh kelgan har qo‘noq  
 Sir emas, chumchuq, chittak,  
 Shaharda ko‘p yurishar.  
 Pechkaning karnayiga,  
 Moslab uylar qurishar.  
 Hatto epsiz musicha,  
 O‘tirmas xas-cho‘p tashib.  
 Chordoq bilan bo‘g‘otga,  
 Qoldi u o‘troqlashib.  
 Laylakka rahmat, chunki  
 Undan ko‘plar cho‘chirdi.  
 Chinor, tutdan inini  
 Simyog‘ochga ko‘chirdi.  
 So‘zni qisqart deganday  
 Kalxat qo‘ydi o‘qtalib,  
 – Jo‘r bedana haqida  
 O‘tirmaymiz to‘xtalib  
 Ancha-muncha nuqsonga  
 Barham berdik joyida,  
 Lekin shunday bo‘lsa-da,  
 Buzilmoqda qoida.  
 Masalan qaldirg‘ochni,



# ЎҚИЛУСЛАР

Boyo‘g‘li ko‘p urishgan.  
Voz kechmaydi negadir  
Guvalak uy qurishdan.  
Aytaversak gaplar ko‘p,  
Ko‘mir biroz ozroq-da.  
Qolgan-qutgan ishlarni  
Hal qilamiz yozroqda...

# ЎҚИТУВЧИМ

## O'QITUVCHIM

«Alifbe»dan o‘rin olgan,  
Bir kam o‘ttiz harflarni  
«Alla», «Anor», «Bahor», «Bayroq» –  
Kabi oddiy gaplarni  
– O‘rgatgan kim?  
– O‘qituvchim.

Sodda, ziyrak, biroz sho‘xmiz,  
Qiziquvchan, sertalab.  
«Lo-la», «Osh-ol» so‘zlarini,  
Toqat bilan erkalab  
– Yozdirgan kim?  
– O‘qituvchim.

Harf tanitib, burro qilgan,  
Anvarni, Sanobarni.  
– Kim o‘rgatgan karralarni,  
To‘rt amal, barobarni?  
Ayt-chi, Azim!  
– O‘qituvchim.

Kitobni shar, o‘qir Hulkar,  
Rosti gap ishonmadik.  
Biz «Alifbe» bayramini,  
Juda zo‘r nishonladik.  
– Ustozing kim?  
– O‘qituvchim.

Bizlar shaymiz: – Labbay, – deb  
Ustozlar xitobiga.  
Bolajonlar navbat keldi,  
Endi «O‘qish kitobi»ga.  
– O‘rgatar kim?  
– O‘qituvchim.




## YOSH DORBOZLAR

Yon qo'shnimiz Anvar, O'ktam,  
Dorga ixlos qo'ygan ko'pdan  
Tutga arqon tortib bog'lar,  
Yosh dorbozlar, yosh dorbozlar.

Ko'kni tutar nayning sasi,  
Jom va chelak chirmandasi.  
Langar tutib, qaddin rostlar,  
Yosh dorbozlar, yosh dorbozlar.

Masxaraboz Karimberdi,  
Qani, qarsak chaling derdi.  
Oyoq serpib kuyga moslar –  
Yosh dorbozlar, yosh dorbozlar.

G'ayratidan dil entikar,  
Balki Marsga dor ham tikar.  
Mashq qilsa bahor, yozlar,  
Yosh dorbozlar, yosh dorbozlar.





## HUSHTAK CHALIB TURASIZ

Hayvon zoti turfa fe'l,  
 Odati, yo'rig'i bor.  
 Tabiatday rang-barang,  
 Chipori to'rig'i bor.  
 Ot minganda azaldan  
 Tizgin siltab «chuh» derlar.  
 Ko'kka qarab sapchisa,  
 Uchqur ekan «uh» derlar.  
 Xurjun ortgach eshakka  
 «Xix»lab yo'lga solasiz.  
 Qashshang-u tixir bo'lsa  
 Xalacho'pni olasiz...  
 Tuya zotin aslida,  
 Cho'ktirasiz «chix-chix»lab.  
 Keyin qanor, qoplarni,  
 Tang'ysisiz unga yuklab.  
 Hayvonlarning ichida  
 Qo'tos biroz jag'alroq.  
 Uzangini niqtagach  
 «Ih-ih» deysiz dag'alroq.  
 Cho'qqisoqol echkini,  
 Qo'riqlaymiz «chek-chek» deb.  
 Qo'y-qo'zini chorlaymiz,  
 Pechak tutib «meh-meh» deb.  
 Mushuk oshsa haddidan,  
 Haydaymiz uni «pisht»lab.  
 Tovuqlarni «tu-tu»lab,  
 Ekin titsa «kisht-kisht»lab.  
 Buzoqcha bir maromda,  
 Yalqovlanib «mo'o» raydi.  
 Ona govmish «bo'-bo'»lab,  
 Hol-ahvolin so'raydi.



# ЎҚИЛДАРЛАШУВ

Qo‘msab qolsa oyisin,  
 Qo‘zi nozik «baa»laydi.  
 Quyrug‘ini silkitib,  
 Uloq sho‘xchan «ma’»raydi.  
 Uyur boshi ayg‘irlar,  
 O‘zligini anglatib.  
 Kishnar «ahang-ahang»lab,  
 Tog‘larni jaranglatib.  
 Tulpor tilin bilmoqlik  
 Sinchilardan<sup>1</sup> qolganda.  
 Hushtak chalgin otingni,  
 Sug‘organi borganda...  
 Burgut «chiyqut-chixo»lab,  
 Yo‘rig‘ingga ko‘nadi.  
 Kaptarni «beh-beh»lasang  
 Kifting uzra qo‘nadi.  
 Tomorqada bir kurka,  
 Kibr-la lapanglaydi.  
 Uning «g‘ul-g‘ul» deganin,  
 Makiyoni anglaydi.  
 Ovchi yoygach jelin<sup>2</sup>ni,  
 Erinmaydi, shoshmaydi.  
 Churkirakda mastakka  
 Taqlid qila boshlaydi.  
 «Bit-bildiq» ohangidan,  
 Dala-dashtlar yashnaydi.  
 Nog‘orasoz laylakdan,  
 Kakliklar qolishmaydi.  
 «Kak-ri-ka-kak» qo‘shig‘in  
 Bulbulga alishmaydi.  
 Chumolidan — filgacha,  
 Jonzotda hikmat katta.  
 Imkon bo‘lsa, ularning —  
 Fe‘lin bilgin albatta.

<sup>1</sup> *Sinch* — otlarning fe'l-atvorini bilguvchi.  
<sup>2</sup> *Jeli* — bedana ushlaydigan to‘r.



## HASHARCHILAR

Yo'ldosh bobo bog'ida,  
Qo'qon gilos yetildi.  
Olaqanot ish boshi  
Hashar e'lon etildi.

Har bir gilos o'rikday  
Zo'ldir, sergo'sht, qirmizi.  
Qushlar bozorin ko'rib,  
Bolalar ham xang-u mang.

Bog'dagi tomoshaga,  
Zimdan boqar sinchalak.  
Olaqanot chumchuqday,  
O'tirmaydi chimchilab.

Kekirtakdan bejirim  
Gilos lo'q-lo'q o'tardi.  
Gerdayishi oshiqcha,  
Na «o'xchidi», «yo'taldi».

Unga taqlid qilishib,  
Chug'urchuq va hakkalar.  
Yutunolmay qolishdi,  
Ora yo'lda hakkalab.

Zarg'aldog'-u zag'chalar,  
Shoshib qoldi g'o'ldirab.  
Tortinchoq musichalar  
Simyog'ochda mo'lтирар.



# ЎҚИЛДАРИ

Qorayaloq va chittak,  
Sal chimtomoq — irimchi.  
Olaqanot hasharni,  
Yakunladi birinchi.

Mayna-ku g'oyib bo'ldi,  
So'ramasdan kechirim.  
Yo'ldosh bobo bog'ida,  
Ishlar bitdi bejirim.

Qora qarg'a erinib,  
Shoxdan arang qo'zg'aldi.  
Mechkaylikda tengi yo'q,  
Olaqanot so'z oldi:

— Yerda qolmas yuelingiz,  
Biz akangiz turganda,  
Galdagi hasharimiz,  
Charos chumak urganda...




*Orzu, xayol – uchqur tulpor,  
Ayting, qanday kishanlaysiz?!*  
*Lof azaldan bizga yo'ldosh,*  
*Goh ishonib, ishonmaysiz...*



## OVNING GASHTI


Qirq yolg'ondan bir yolg'on,  
 Qadimdan meros qolgan  
 Yelkamda safar xaltam,  
 Yonimda sergak tozim.  
 Ovda ne ko'rgan bo'lsam,  
 Sizga aytmog'im lozim.  
 Cho'l bag'rida biqirlab,  
 Buloq qaynab turibdi.  
 Bitta sichqon qopltonni,  
 G'ajib, chaynab turibdi.  
 Do'stlar, buni rostmana,  
 Shikor desa bo'ladi.  
 Sirtlon bilan qashqirning  
 Oqib ketdi so'lagi  
 G'ingshib chiyabo'rilar,  
 Chor tarafda aylanar  
 O'limtik qush charh urib,  
 O'lja sari shaylanar.  
 It bezovta bu holdan,  
 — Sabr qil, deb o'ziga.  
 Suyak olib qopchiqdan,  
 Tashlab berdim toziga...





## BARCHASI YODIMDA

Barchasi yodimda, esimda,  
Hali tug‘ilmagan kezimda.  
Bobomning yilqisin boqardim,  
Xarsang toshga qoziq qoqardim.  
Barchasi yodimda, esimda,  
Hali tug‘ilmagan kezimda.  
Kelardim otlarni qaytarib  
Qarasak, yo‘q to‘riq baytalim  
Uni bog‘dan, tog‘dan qidirdim,  
Yayov hammayoqdan qidirdim,  
U paytlarda oy ham yotmasdi,  
Quyosh esa sira botmasdi.  
Bulut bo‘lmasa ham do‘l yog‘ardi,  
Momom qisir echkini sog‘ardi.  
Foyda bormi gapni cho‘zgandan,  
Baytalimni topdim O‘zgandan.  
Oynako‘lning shundoq yonida,  
Juman uloqchining tomida.  
Qulunlab yotibdi qaranglar,  
Toychoq meni tanib alanglar,  
Harakatni boshladim shomdan,  
Olib tushgach ularni tomdan.  
Otni minib, qulunni ortsam,  
Chuh, deb unga qamchinni tortsam.  
Turolmadi baytal bechora,  
Yurolmadi baytal bechora.  
So‘ngra toyga ot ni o‘ngarib,  
Egarini bog‘lab-to‘nkarib  
Qamchi ursam qanoti borday,  
Qulun chopib ketdi shunqorday.





## POYGA ZAVQI

Poyga zavqin surgani,  
 Taqalatdim Burgani  
 Ko'nikmagan siyog'i,  
 Biroz oqsar tuyog'i.  
 Oq qand berib ovutdim,  
 Terlarini sovutdim.  
 Yaxshi boqdim, tinmadim,  
 Behudaga minmadim.  
 Unga o'tgan shanbadan,  
 Arpa solib damba-dam,  
 Parvarishni do'ndirdim,  
 Yo'rg'alashga ko'ndirdim.  
 Demak, tayyor poygaga  
 Sovrin qolar foydaga.  
 Silab-siypab erkalab,  
 Minib chiqdim ertalab  
 Hay'at qur'a tashladi,  
 Poygani ham boshladi  
 O'n gaz yerga bir hatlab,  
 Tuyog'idan o't chatnab  
 O'nta kuluk — tulporni,  
 Unga mingan shunqorni  
 Toliqtirib toldirib,  
 Boplab ortda qoldirib  
 Yetdik marra finishga,  
 Arzir ko'z-ko'z qilishga.  
 Shunday qilib, Sichqonboy,  
 Surdi ovning gashtini  
 Men esa mazza qildim,  
 Kezib ovul dashtini.





## BESHTA SANOCH

Lof gaplarga Latifjonning,  
 Suyagi yo'q.  
 Sal maqtanchoq, og'zini-ku,  
 Jiyagi yo'q.  
 Yoshligidan o'ta abjir,  
 Chaqqon edi.  
 Bo'rdoqiga beshta chivin  
 Boqqan edi.  
 Charxlattirib bolta, pichoq,  
 Asboblarni.  
 Ishga soldi guzardagi,  
 Qassoblarni  
 Bir chivinni ayirguncha  
 Jo'rasidan  
 Tushov solib chiqarguncha,  
 Qo'rasidan.  
 Ikki qassob tushib ketdi,  
 Qora terga.  
 Eplab-seplab yotqizishib,  
 Uni yerga  
 Shodi qassob, tavakkal, — deb  
 Tortdi pichoq  
 Terisidan beshta sanoch'  
 Tikdi shu choq.  
 Men ularni cho'ponlarga  
 Sovg'a qildim.  
 — Shu gap rostmi? Ajabtovur!  
 Tavba qildim.  
 — Yog'larini berayotsak  
 Sovungarga  
 Go'shtlarini olib qochdi,  
 Bir to'p qarg'a.

---


<sup>1</sup> *Sanoch* qimiz quyladigan idish. Echki va qo'y terisidan tayyor-lanadi.





## SHIRMON KULCHA

Bir arava yasadi,  
 Latifga usta Ro'zi.  
 Ko'zmunchoqlar osilgan,  
 Ko'rganning kuyar ko'zi.  
 Chamamda uni atay,  
 Buyurtma qilgan chog'i.  
 G'ildiragi g'altakdan,  
 Gupchak yong'oq po'chog'i.  
 Savol berar ko'rganlar:  
 — Bunga nima ortadi?  
 Bu shinam aravani,  
 Qanday jonzot tortadi?  
 Ixcham yugan, qo'm, tizgin  
 Charmdan tirkich, bo'yincha.  
 Bular shoxdor Qo'ng'izga,  
 Demak, mening o'yimcha.  
 Latifjon ko'rib qolib,  
 Tirishqoq chumolini.  
 Tortib bermoqchi bo'ldi,  
 Ombor to'la donini.  
 Shuning uchun bugundan,  
 Qo'ng'iz ishga kirishdi.  
 Savob yumush ko'yida,  
 Dovon oshdi, tirishdi.  
 Quruq soyning bo'yida,  
 Tomi yo'q qo'sh tegirmon.  
 Na parragi, novi bor,  
 Hamisha bo'sh tegirmon.  
 Hampa, do'lning o'zi yo'q,




# ЎҚИЛМАГАН ТАНДИРДА

Faqat yakka toshi bor.  
Bug'doy tortar tinmayin  
Imkon bo'lsa, tashib ol.  
Aravakash qo'ng'izdan,  
Chumoli shod shunchalar.  
Qurilmagan tandirda,  
Yopar shirmon kulchalar.



## YUGAN SOLIB, EGAR URIB

Quloq soling Latifjonning,  
 Yana bitta ertagiga.  
 Yugan solib, egar urib,  
 Chigirtkaning erkagiga  
 Qamishlardan nayza yasab,  
 Otquloloqdan qalqon qilib  
 Xurjuniga to'qoch solib,  
 Tutmayizdan talqon qilib  
 Yoymalak yelkasida  
 Yonboshida gul dor sadoq.  
 Uzangini niqtab borar,  
 Latifboyning fe'li chatoq.  
 Chigirtka ham o'qtin-o'qtin,  
 Asovlanib lo'killaydi.  
 Uni ko'rib yumronlarning,  
 Yuraklari po'killaydi.  
 Mayda-chuyda darrandani,  
 E'tiborga ilgani yo'q.  
 Maymoq quyon, kalamushni,  
 Nazar-pisand qilgani yo'q.  
 Bu gal Latif borayotir,  
 Qizil Ungur zoviga.  
 Xayri xola chaqirtirgan,  
 Uni Tulki oviga.  
 Kampirshoning tovug'in yeb,  
 Suyagini kemirgan mish.  
 Agar mish-mish rost bo'lsa,  
 Begemotday semirgan mish.  
 Chigirtkani rosa emlab,  
 Keyin tolga bog'lab qo'ydi.  
 Tulkilarning inlarini  
 Durbin bilan chog'lab qo'ydi.  
 Sezdirmayin g'orga kirib,



# ЎҚИЛДАР

Mo'ljal olib ancha yotdi.  
 Peshin chog'i begemotday  
 Bir tulkini shartta otdi.  
 Hoy kamonning zarbidan u,  
 Jon xalfida baqirgandi  
 Itday ulib, yordam so'rab,  
 Do'stlarini chaqirgandi.  
 Jilg'adagi qarag'aylar  
 Aks-sadoga sinib tushdi.  
 Olmaxonlar shoshib qolib,  
 Bir-birini minib tushdi.  
 So'qmoq yo'ldan chopganicha,  
 O'ljasiga yetib alhol  
 Tipirchilab turgan mahal,  
 Bo'g'izladi uni darhol.  
 Semiribdi haddan ortiq,  
 Quyrug'i ham ikki quloch.  
 To'rt pahlavon teri shilar,  
 Sababi, yo'q o'zga iloj.  
 Qolgan-qutgan hangomani,  
 Ko'nchilardan eshit do'stim:  
 — O'sha tulki mo'ynasidan,  
 Tikib berdik o'nta po'stin.  
 Latifboyday zo'r merganga,  
 Arzir edi hisob bersak.  
 Ikki quloch quyrug'idan,  
 Tayyorladik qirqta telpak.  
 Quzg'un ko'kdan chovut solib,  
 Tulki go'shtin uloq qildi.  
 Arslon bilan Yo'lbars esa  
 Bir-birini cho'noq qildi.  
 Mergan tulki kallasini,  
 Xurjuniga solib keldi.  
 — Meni eslاب yurarsiz, — deb  
 Ikki qo'llab olib keldi.  
 Xayri xola narvon qo'yib,  
 Tovuq katak yonboshiga.  
 Irim qilib, u kallani,  
 Osib qo'ysi tom boshiga...



## BU DUNYONING ISHLARI

Ko'rdinglarmi chipor Xo'roz,  
Minib olib Tulkini  
O'tib ketdi guzar tomon  
Ortib mol-u mulkini

Olahakka arqon bog'lab,  
Timsohning po'koniga,  
Yong'oq tashir bozordagi  
Xususiy do'koniga.

Toshbaqaga egar urib,  
Qing'ir oyoq chigirtka  
Kechki ovqat tashvishida,  
Shoshib borar gugurtga.


Beqasam to'n Zebradan  
Jirafa sal norozi.  
Filning vaznin o'lchash uchun  
Sotib opti tarozi.

Chuvalchangni ko'rgan mahal,  
Kobra qochdi seskanib.  
Bu dunyoni ishi shunday,  
Pala-partish, teskari.



## KO'ZIN OCHSA


Bir qop sabzi ortib olib  
 Bo'riga  
 Do'q urgancha hayvonlarning  
 Zo'riga.  
 Quyon polvon borar miltiq  
 O'qtalib.  
 Bo'ri sho'rlik qolsa ba'zan  
 To'xtalib.  
 Sapchib tushar yo'g'on-yo'lpi  
 To'qmoqdan.  
 Ketisharkan bir tovon yo'l,  
 So'qmoqdan.  
 Bu ahvolni Laylak ko'rib,  
 Bog'aro  
 Chaldi birdan o'rmon bo'ylab  
 Nog'ora.  
 Quyon cho'chib ochsa g'ilay  
 Ko'zini,  
 Tol ostida ko'rib qoldi  
 O'zini...





## UYIN TOPMAY

Tuni bilan bulut qorni  
Elab chiqdi.  
To'qayzorni oq ko'rpgaga  
Belab chiqdi.  
Xavf-u xatar qor ostida,  
Qolgandayin.  
Qaddin bukib, ta'zim qilar,  
Archa, qayin.  
Quyon polvon qaytar edi  
Erta ishdan,  
To'q-to'q qilib o'lja izlar  
Qizilishton.  
Quyon o'ylar, — Bu ham mendek  
Sarxush-garang.  
Uyin topmay har eshikni  
Chertar qarang...





*Ixlos bilan mashq qilaman,  
O'zimga xos sozim bilan.  
Shogird, do'stga sadoqatda,  
Ustozlarga ta'zim bilan.*



## YASSAVIY ZURYODLARI

Turkiston deb atalmish,  
Qadim yurtning farzandi.  
Bilgin yetti otangni,  
Sen kimning asal-qandi?..

Bu shaharni ardoqlagan,  
Amir Temur Jahongir.  
Tarixi ham, ta'rifi ham  
Do'stim, olam jahondir.


Xo'ja Ahmad Yassaviyni,  
Buyuk Temur pir tutgan.  
Turk qavmining qadrini  
U doimo bir tutgan.

Ko'hna Turon zaminning  
Dilgir, sho'xchan bolasi.  
Senga dastur Forobiyning  
Qalb gavhari — nolasi.

Tilni yorar mevasi ham  
Shakarpalak qovunlar.  
Mag'zin chaqqan ajabtovur  
Bunda qishloq, ovullar.

Cho'rnoq, Qarnoq va Suvnoq,  
Sig'noq, Chubanoq, Chog'adir.  
O'rong'ay-yu, Qo'shota,  
Teng-to'sh, qondosh og'adir.

Qadim qozoq tarixi,  
Ablayxondan boshlanar.



# ЎҚДАРЛАСАНГ

Varaqlasang qatlarin,  
Goho ko'zing yosylanar.

Abulxayr, Ulug'beklar,  
Bo'lishgan quda-anda.  
O'tmishingni eslasam,  
Iftixor jo'shar tanda.

Alloma Yugnakiyning  
Ruhlari parvonadir.  
Gavharbegim ibrat asli,  
Robiyaxon onadir.

Ahli ilm diyori,  
Shon-shuhratga eli boy.  
Musa Jirov, shoir Ergash,  
Adib Sattor Yeriboy.

Ko'hna zamin, turk qavmin  
Faxri deya atalur.  
Iqon esa Mirtemirday  
Ulug' zotning vatani.

Ne tabarruk insonlar,  
Senga qanot bo'lishar.  
Shuhrat, qadring, shavkating  
Doston, bayot bo'lishar.

Ikki elning erka o'g'li,  
Odil Yoqub bilsang hozir.  
Eng munosib farzand erur,  
Sunnat og'a, Nosir Fozil.

Osmon qadar otsa arzir,  
Turkistonlik bo'rkinii.  
Tavsiflashga so'zim yetmas,  
Bu o'lkaning ko'rkinii.




«Hikmatlar»kim Yassaviyning  
Yonib yozgan ohidir.  
Turkistonim – turk qavmining  
Qutlug' sajdagohidir.

Bu yurt asli Osiyoga  
Mehvar uchun yaralgan.  
Shu makondan turkiylar  
Jahon bo'ylab taralgan.

Qondosh xalqmiz, tilagim  
Ko'ngling bahor, yoz bo'lsin.  
Qul Xoja Ahmad eliga  
Gullar poyandoz bo'lsin.

Turkistonim, shu bag'ishlov,  
Jo'nroq she'riy bayondir.  
Sening yoshing, bir Tangrim-u  
Yassaviyga ayondir...

Boqiy yasha, eson bo'lgin,  
Nurli zamon charog'ida.  
Seni asrab-avaylaylik  
Ko'zlarimiz qarog'ida.





## USTOZLARGA BAG'ISHLOV


Suhbat ketsa ahli qalam,  
She'rga doir  
Ko'z o'ngimdan o'tar har gal,  
Uchta shoir.

She'riyatda uch ustozning  
O'z o'rni bor.  
Qudrat Hikmat, Sulton Jo'ra,  
Zafar Diyor.

Ishonmasang kitobxondan  
O'zing so'ra:  
— Zafar Diyor, Qudrat Hikmat,  
Sulton Jo'ra.

Ertaklari, dostonlari  
Bilmas sarhad.  
Sulton Jo'ra, Zafar Diyor,  
Qudrat Hikmat.

Uch ustozning yozganlari,  
Bolga tatir.  
Biri Sulton, biri Zafar  
Qudratlidir.





## BESHIK

(*Salomatxonni xotirlab*)

Uch oy yozda qayta qurdik,  
Buzib eski tomlarni.  
Yangiladik darvoza-yu,  
Hattoki ishkomlarni.

Qo'sh qavatli imoratning,  
Qandil, naqshi bo'lakcha.  
Gulxonani aylantirib,  
Tortdik shinam yo'lakcha.

Kuya yegan kigiz, shirdoq,  
O'rin oldi panadan.  
Qumg'on, chiroq joyin topdi,  
Xilvat omborxonadan.

Boqarkanman peshayvonga,  
Kungirali eshikka.  
Ko'zim tushdi nok ostida,  
Qolib ketgan beshikka.

Shu beshikda qizim, o'g'lim,  
Alla tinglab yotgandi.  
Nabiram ham orom olib,  
Fayzli tonglar otgandi.

Lol qolardim rafiqamning  
Sadoqat, bardoshiga.  
Ijarali uyga ko'chsak,  
Beshik uning boshida.



# ЎҚИЛДАР


O'shal damlar xayolimdan,  
O'tar tez-tez tush kabi.  
Farzandlarim parvoz qildi,  
Ko'kka uchgan qush kabi.

Qizim, o'g'lim yotgan beshik,  
Sig'may qolgach chorboqqa  
Oq choyshabga o'rav uni,  
Osib qo'ydim chordoqqa...



## SUHBAT

- «Ko'kterakning shabodasin»,  
Xo'sh, kim yozgan?
- Hakim Nazir.
- «Irmoq», «Qorxat», «Diydor»ni-chi?
- Nosir Fozil.  
«Besh bolali yigitcha»day,  
Tadbirkordir, «Yurmas koyib»...
- Umi, «Sariq devni mingan»,  
Xudoyberdi To'xtaboyev.
- «Qilich bilan shamshir» ushlab.  
«Bog' ko'chada» ming to'lg'onib,  
«Buloq suvin» ichgan kim?
- Adib Farhod Musajonov.
- Bolalarga yozmoq mushkul,
- Xo'sh, kim qoldi burchga sodiq?
- Safar Barno, Sulton Jabbor,  
Habib Rahmat, Anvar Obid.  
Miraziz A'zam axir,  
She'rni chaqar yong'oqdayin.  
Jirafaning bo'y-bastini  
Rauf Tolib yozar tayin.  
Ba'zi birlar cho'bir otdek,  
Yo'lni bevaqt changitsa ham,  
Goho bozor tashvishlari,  
Ora-sira gangitsa ham.  
Qambar Ota, Shoyusuf ham,  
Ixlos bilan jo'sh urmoqda.  
Rustam Nazar, Dilshod Rajab,  
Cho'ng daryoga qo'shilmoqda.  
Shoir Yo'ldosh Sulaymon,  
O'z soziga egadir.  
Andijonlik Muqum Qodir,



# ЎҚИЛУСЛАР

Sal kamnamo negadir?!  
Xudoyberdi Komilovning,  
Zavqi yuksak Urgutdan.  
Zafar bilan Sodiqjon  
Jujuqlarga girgitton.  
Kavsarbonu, Zamiraxon,  
Olimadir, onadir.  
She'r, hikoya dardi bilan  
Har ikkovi yonadir.  
Abdurahmon Akbarovdan,  
Olmang sira xavotir.  
Xorazmning Bog'otidan  
Erpo'lat Baxt kelayotir.  
Toshinqirab qolgan biroz,  
Tulporlarin tuyog'i.  
Sal e'tibor berilsa,  
Soz bo'lardi buyog'i...



## IBRAT

*(Birinchi xalqaro sharhlovchi, ovuldosh og‘am  
Jumaboy Mo‘minovga)*


Qahatchilik edi u kezda,  
Qo‘noq go‘ja, tariq non yerdik.  
Zog‘oraning qadri o‘tganda,  
Tegirmonchi bo‘laman derdik...

Taxchil edi «oynai jahon»,  
Bir ovulga bitta yetardi.  
Guzardagi shinam choyxona,  
Juda gavjum bo‘lib ketardi.

Qaldirg‘ochdek tizilib olib,  
Multfilmlar ko‘rib tinardik.  
«Olamda nima gap?» bo‘lgan chog‘,  
Mo‘minovga taqlid qilardik.

Dars so‘nggida Hamdamov domla,  
Uqtirardi, — Ukalar demak.  
O‘z yo‘lingni topmoqchi bo‘lsang,  
Jumaboyday o‘qishing kerak.

Muallimning yurak so‘zlari,  
Yo‘limizni nurdek yoritgan.  
Halol mehnat, xolis niyatlar,  
Mo‘jizaday, yo‘qni bor etgan.



# ЎҚДАРЛАМА

So'ng, muruvvat neligin asli,  
Ustoz Mirtemirda ko'rgandim.  
Shogirdga mehrni jo'ralar,  
Men Qudrat Hikmatdan o'rgandim.

Ibrat bo'lgach, shunday og'alar,  
Shukrona aytmoqqa qodirman.  
Farzandlarim insofli, oqil,  
El qatori yashayotirman.



## SAFAR BILAN...

Oltmishinchi yilning avji kuzagida,  
Do'rmon degan qarorgohning o'zagida.  
Poyga qo'ydiq, zoti chopqir o'zadi-da,  
Har qandayin choriqlar ham to'zadi-da?  
Mushkul yo'lida hamroh bo'lgach Safar<sup>1</sup> bilan.

Pisand qilmay o'tdik dovon, qiyalarni,  
Yel uchirdi qamg'oqlarni, chiyalarni.  
Chetga surib qirchang'ini, biyalarni,  
Chavandozlar ko'pkarida uyalarmi?!  
To'siqlardan dadil o'tdik zafar bilan.

Yetimlikning iztirobin, dog'in totdik,  
O'ksimadik, talabalik chog'in totdik.  
So'z olamin keza-keza tog'in totdik,  
Diltang kezda ancha-muncha chog'ir tortdik,  
Bu olamga boqdik ochiq nazar bilan.

Zafar Diyor, Qudrat Hikmat<sup>2</sup> bayroq bo'ldi,  
Mashqlarimiz tasvir, rangga boyroq bo'ldi.  
Hayot tarzi goh sokin, goh qaynoq bo'ldi.  
Davr-qalam charxlaguvchi qayroq bo'ldi,  
Quduq qazdik zer bilan zabar bilan.

Qing'ir yo'ldan, adovatdan olis turdik,  
Tarakashga qo'shilmadik, xolis turdik,  
Mujmal gapni dangal so'zga alishtirdik,  
She'rni yangi tashbeh bilan qorishtirdik,  
Do'st tutinib kam bo'lmadim Safar bilan.

<sup>1</sup> Bolalar yozuvchisi Safar Barnoyev nazarda tutilmoqda.  
<sup>2</sup> Atoqli bolalar shoirlari.





## KO'PNI KO'RDIK...

*(Shoir Safar Barnoyevga javob)*

Oltmishga chiqquncha ko'p ishni ko'rdik birodar,  
O'ttiz bahor, o'ttiz qishni ko'rdik barobar,  
Bu falakning charxidir, tegirmon navbat bilan,  
«Yoz-yoz»ni, «Boz-boz»ni qancha «mish-mish»ni  
ko'rdik dodar.

«Oq yo'lni olib» tinchib ketdi qancha qalamkash,  
Ayb kimda, boqmasa ilhom parisi qalamqosh?  
Gar she'ri bosilmasa do'sti nodon bizzdan alamkash,  
Na u yoqda, na bu yoqda bor sarson-sarosar.

Ko'rdik sadoqatda tengsiz Zulfiya opani,  
Ulug' Mirtemirni, G'afur akaday chapani  
Bemor chog'da ham tinch qo'ymadik Asqad akani,  
Bu kabi kov-kovlarga hatto fil qilmas bovar.

Bir akam oltmisht kitob chiqardi ayon senga,  
Mazmunini o'ylasang, holi xarob attangga,  
Qudrat Hikmat she'rclarining oldida u bir tanga,  
Ular noshirni qisir qilib, homiyni sog'ar.

\* \* \*

Nahot farqlay olmasak atlasdan oddiy bo'zni,  
Qadriga qachon yetamiz diyonat degan so'zni?  
Iblis va shaytonlardan ehtiyyot qilgin o'zni  
Basharti chog'ar bo'zlasa ko'ngil bo'shdil birodar...





## OQQUSHLAR

(*Uyg'ur shoiri Uchquuning armoni*)

Qanotlarin qilichdek  
Tig'lab borar oqqushlar.  
Iztirobin ichga yutib,  
Yig'lab borar oqqushlar.


Turna kabi arg'imchoq,  
Solib borar oqqushlar.  
Pinhon saqlab dardini,  
Nolib borar oqqushlar.

Azal shunday, oyog'in  
Yig'may borar oqqushlar.  
O'z yurtiga negadir  
Sig'may borar oqqushlar.

Balki, taqdir — azalning,  
Qat'iy hukmi — farmoni.  
Bu Tumanboy<sup>1</sup> oqningmas,  
Bu Uchquuning armoni.

---

<sup>1</sup> *Tumanboy* — qozoq shoiri Tumanboy Mo'ldag'aliyev.



# Ӯлғаралар

## OMON BO'LSIN

(*Tatar shoirlari, qadron do'stlarim Botu Turay,  
Rustam Ming'alim va Garay Rahimlarga*)

Ovloq o'rmon, zumrad ko'ldan,  
Baliq ovlar bizga Rustam.  
Suhbatimiz she'r haqida,  
To'rttovimiz to'rt ulusdan.

Shoir ahlin bilsa bo'lar,  
Dilda yongan ezgu hisdan.  
Hasan To'fon yubileyiga,  
Bordik oqshom dabdurustdan.

Hasan abziy so'zlar mammun:  
— Mir Alisher zukko ustam.  
To'qay nazmi, Musa Jalil,  
Bir umrga chiqmas esdan.

Do'stlar mehrin men-chi bayon,  
Etdim she'rda shul xususdan.  
Omon bo'lsin, Oq Edil-u,  
Garay Rahim, Botu, Rustam.



## O'SHA KUNI

(Rassom Sh. Abdurashidovni xotirlab)

Havo aynib birdaniga  
Buzdi osmon rangini.  
Bobom shitob poxol bilan  
Bog'lar uzum zangini.

Tund odamday ko'k toqining,  
Qosh-qovog'i osilgan.  
Dala-qirlar hordiq olar,  
Bo'shab kuzgi hosildan.

Tuman bosdi yetmaganday,  
Bir bog'lam tutantiriq.  
Xazonlarni g'aram qilib  
Gugurt chaqdi ukam turib.

O't taftida bulut erib,  
Tumanning esi og'di.  
Tabiat ham motam tutib,  
Shu kun ezib yomg'ir yog'di...





## JO'ROVOZ

(*Shoir Hamza Imonberdini xotirlab*)

Ko'p qavatli uylarning  
Shundoqqina orasida  
Shaharning kunga betkay,  
Gavjum joyi — Qorasuvda.

Qutli, fayzli va ahil  
Bir xonadon bordir, biroq,  
Bolalari bir etak,  
G'iybatlardan xoli, yiroq.

«Otajonim» qo'shig'ini,  
Sherzod sho'x-shan ayta boshlar.  
Hamza chalar rubobni,  
Tomoshabin — qo'shni yoshlari.

«Ey, saboni» Dilorom,  
Qoyillatar dutorida.  
Ushbu kuyni tinglaganlar,  
Bu go'shada — bo'lmas zada.

Jayhun bo'shab «shish-pish»dan  
Ansamblga qo'shilar.  
Ko'ngil tori — qo'shiqdan  
Simobday ip — eshilar.

Kayvoni buvijoni,  
Zavqqa botib ro'parada.  
Alqab-yulqab ularni,  
Duoga qo'l ko'taradi...



## ELEKTRICHKA

*(Iqtidorli shogirdim Abdurahmon Akbarga)*

Yangiyo‘ldan — Toshkentga,  
Tong otmayin qatnaydi.  
Qovurg‘asi mayishib,  
G‘ildiragi chatnaydi.


Parvo qilmas yo‘lovchi,  
Temir qopqa zARBiga.  
«Chorbozorchi» g‘iz-g‘izon,  
Chopar pulning dardida.

U «tijorat qopiga»,  
Tiqqan latta, piymani.  
Shu payt ushoq bir yigit  
O‘rin olar iymanib.

Yumushlarni xomcho‘tlab,  
Xayol bilan bo‘lar band.  
Yo‘laklar ham, tanbur ham  
Odamlar bilan tirband.

Bugun yana ishlar ko‘p,  
Muqova tashish kerak.  
Havo iliq, kartonni,  
O‘rash-u, yopish kerak.

Nashriyot-bosmaxona,  
O‘rtada idorasi.  
U «bo‘zchining mokisi»,  
Bu do‘sstar iborasi.



# Легенда о любви

Yumush tugab, bong urar,  
Azim Toshkent kuranti.  
Xizmatidan qaytar el,  
Mehnatkish, dilbar, tanti.

Vagonlar dim, shahardan,  
Turfa gaplar eshitib.  
Chala qolgan mashqini,  
Miyasida pishitib.

Ishdan qaytar: — qizlariga,  
Saqich — cho'zma qand olib.  
Bolalarning shoiri  
Abdurahmon Akbarov.



## QUYOSHNI QARSHILAB

(*Do'stim Topiljon Jalolovga*)

Bir kamtar yigit yashar,  
Ko'r kam Buloqboshida.  
Quyoshga yondosh, qo'shni,  
Chilustunning qoshida.

Ta'riflashga so'z yetmas,  
Uning tuproq, toshini.  
To'pori, tanti oshnam,  
Dala sidan oshinib.

Har uyga o'n bittadan,  
Bolor-to'sin sanatib.  
Qurdi shinam imorat,  
Kunchiqarga qaratib.

Barcha o'zbeklar kabi,  
Unutmadi sinchini.  
Saqlash kerak ofatdan,  
Xonadonning tinchini.

Nabiralar bir etak,  
Jo'jabirday ahil jon.  
Parvonadir momosi,  
Bobosi-chi girgitton.

Orom nima bilmaydi,  
Toliqmaydi yumushdan.  
Yelkada to'n yelvagay,  
Soch-soqoli kumushday.



# ЎҚИМДАРЛАШУВ

Quyoshga peshvoz uyga  
Nur to'kilar parpirab.  
Saxovatli dehqonday,  
Peshonasi yarqirar.

Chunki pok niyat bilan  
Oftobni qarshilaydi.  
Ko'p qatori eliga,  
Faqat tinchlik tilaydi.

Kunga qarab ochilar,  
Darvozasi, darchasi.  
Bu hovli yurtimizning  
Fayzli, kichik parchasi...



## TILAK

Er yigitning qalbi har dam cho‘g‘li bo‘lsin,  
Niyati pok, komil inson, to‘g‘ri bo‘lsin.  
Har bandaning umri uzun, rizqi fuzun,  
Murodjonday diyonatli o‘g‘li bo‘lsin.








## OLTIN YOLLI TULPOR QISSASI

*(Ovuldosh do'stim Arim Akbaraliyevga  
bag'ishlayman)*

Olabuqa qishlog'idan  
 O'n chaqirim narida,  
 Chotqol tizma tog'larining  
 Etagida — barida  
 Bulutlarga manzil bo'lib  
 Tulpor ko'li joylashgan.  
 Bulbul, mayna bahor va yoz,  
 Uni makon aylashgan.  
 Balandligi yer sathidan  
 Ming qulochcha yuqori.  
 Ko'rgan ko'zni qamashtirar  
 Salobati, viqori.  
 Qizil, sariq va timqora  
 Uch xil lola o'sadi.  
 Chor tarafin archazor  
 Kiprik misol to'sadi.  
 Ushbu ertak momolardan  
 Meros bo'lib qolgandir.  
 Tulporko'lning afsonasi  
 Es-hushimni olgandir.  
 Emish bir chol Chotqol yoqdan  
 Ovul tomon kelarkan.  
 Aytib bilgan qo'shig'ini,  
 Baytalida yelarkan  
 Tulporko'lga duch kelibdi,  
 Ayni peshin chog'ida.  
 Uloviga dam beribdi,  
 Yam-yashil qirg'og'ida.  
 Maysa uzra chakmonini  
 Asta yozib tashlabdi.



# ЎҚИЛУЧАРЛАШУВ

Kunbotarga yuzlanib chol  
 Namoz o'qiy boshlabdi.  
 Shu payt ko'lning o'rtasidan  
 Oltin yolli ot chiqib,  
 Ko'zni ochib-yumgunchayin,  
 Sohil tomon bot chiqib,  
 Ko'kka sapchib pishqirdi-da,  
 Ko'zi yonib, shaylanib  
 Bo'z baytalning atrofidan  
 O'tdi uch bor aylanib.  
 Kishnog'iga tog'-u toshlar  
 Sado berar uzmasdan.  
 Cho'pon esa beg'am, befarq  
 Ibodatin buzmasdan —  
 Turib boqsa duldul ayg'ir  
 Sho'ng'idi ko'l qatiga.  
 Kalimasin aytib bobo  
 Qamchi bosdi otiga.  
 Kunlar bir-bir o'taverdi,  
 O'n ikki bor oy tug'di.  
 Bahor chog'i to'riq baytal  
 Oltin yolli toy tug'di.  
 Bu hodisa tez orada  
 Ovul bo'ylab tarqaldi.  
 Qo'shib-chatdi ko'rganlar ham,  
 Gazak oldi, farq oldi.  
 Chol hang-u mang, kampir esa  
 Uni qistab qo'ymadi.  
 Yana bitta qulun olish  
 Chorasini o'yladi.  
 To'g'ri keldi kampirshoning  
 Tongda ochgan foli ham,  
 Taraddudga tushib qoldi  
 Uning qaysar choli ham.  
 Mol-dunyoga hirsin qo'ygan,  
 Rejasidan qaytarmi,  
 Egar urib, yo'lga sozlar,



Silab-siypab baytalmi.  
 Tulporko'lga jo'nab qoldi,  
 O'zga yo'lga qayrilmay.  
 Oltin yolli toychoq chopar  
 Onasidan ayrilmay.  
 Avji peshin, atrof sokin  
 Ko'lda oshufta holat.  
 Yozdi shoshib chakmonni  
 Olib-olmay tahorat.  
 Chol shunchaki, nomi uchun  
 Namoz o'qib o'tirar.  
 Oltin yolli ot tashvishi  
 Yuragini o'pirar.  
 Tog'-u toshlar yangrab ketdi  
 Shu mahal shovqin-sasdan.  
 Ayg'ir to'g'ri o'tib borib  
 Baytalni aylanmasdan,  
 To'ng'irchoqlab o'qtin-o'qtin  
 Depsinib kishnagancha,  
 Oltin yolli qulunni u  
 Yelkadan tishlagancha,  
 Ko'l ostiga kirib ketdi  
 Ikki duldul bir bo'lib.  
 Chol ovulga qaytdi nochor  
 Hafsalasi pir bo'lib.  
 Bu bir cho'pchak, cho'ng momodan  
 Bizlarga meros qolgan.  
 Tulporko'lning afsonasi,  
 Balki rost, balki yolg'on...





## QISMAT

*(Ballada)*

Ming to'qqiz yuz to'qson birning  
 Avji navro'z chog'ida  
 Go'zal Qrim diyorining  
 To'ng'itztog<sup>1</sup> quchog'ida.  
 — Gurunglashdik uch og<sup>2</sup>ayni,  
 Turkman, o'zbek, armani<sup>1</sup>  
 Bunda hordiq chiqarganning,  
 Qolmas sira armoni.  
 Har kun oqshom choy bahona  
 Dildan gurung quramiz.  
 Va xayolan O'sh, Qorabog',  
 Kopetdog'da yuramiz.  
 Kajraftorning ishlariga  
 Uchov uch xil boqamiz.  
 Jumboqlarni o'zimizcha,  
 Imkon qadar chaqamiz.  
 Oxir suhbat yo'naliшин  
 Shamoyili o'zgardi.  
 Alg'ov-dalg'ov zamonada  
 Bor har kimning o'z dardi.  
 Hasratlashdik, dardlashdik xo'p  
 Axir nima deyin men  
 Ikkoviga «Temirnoma»  
 Sovg'a qildim keyin men.  
 Shoir Yuriy Saakyan ham  
 Solnomani varaqlab.  
 Sarkardaning jang-jadalin,


---

<sup>1</sup> *Og'ageldi Allanazarov* — Turkman shoiri.  
<sup>2</sup> *Yuriy Saakyan* — Arman shoiri.





Qo'shib-chatib, sal oqlab.  
 G'aroyib bir hikoyatni,  
 So'zlab berdi davrada.  
 O'ziga xos usul bilan,  
 Astar bichdi avraga.  
 Amur Temur, lashkar tortib,  
 Tabriz sari o'tganda.  
 Xayastonni yengib oxir  
 Arpaliga yetganda  
 Rizqin izlab keng daladan  
 Chol-u kampir yukinib.  
 Sarak terar to'rvasiga,  
 Yetmish ikki bukilib.  
 Qo'sh nabira boshoqlarni,  
 To'qmoq bilan yanchadi.  
 Qo'shin bilan ishlari yo'q  
 Kim horib, kim charchadi.  
 Otdan tushib olampanoh  
 Bormish ular qoshiga.  
 Salomlashdi sabr tilab,  
 Ularning bardoshiga.  
 Mezbon esa sarkardani,  
 Siyladi ko'moch bilan.  
 Soqchilarni bir ho'plamdan,  
 Atala-umoch bilan.  
 — Olampanoh deydi, — bobo  
 Hasratidan chang chiqib.  
 Zo'rg'a yetdik don o'rimga,  
 O'tgan qishdan tang chiqib.  
 Bu kunlarga yo'liqmasin  
 Hech bir inson zoti ham.  
 Dasturxonga duo o'qib,  
 Amir tortgach fotiha.  
 Farmon berdi yigitlarga,  
 Cholga yordam berishga.  
 Somon to'plab, poxol yig'ib,  
 Bir kun boshoq terishga.






Sarak terar sarkardaning  
 Son-sanoqsiz jangchisi.  
 Xashagini charxob qilib,  
 Don-dunlarin yanchishib  
 Qoplab arpa, bug'doylarni  
 Hovlisiga uydilar  
 Qolgan qismiñ kulbasining  
 Mo'rkonidan quydilar.  
 Hasharchilar hordiq olib,  
 Turib tong-la saharda.  
 Jabduq urib, yo'lga tushdi,  
 Tabriz sari safarga.

\* \* \*

Falak charxi aylanib deng,  
 Oylar, yillar o'tibdi.  
 Ararat-u, Arpalini,  
 Ot dupuri tutibdi.  
 Temur cholni yo'qlatibdi,  
 Hol-ahvolin bilgani.  
 O'tgan galgi uchrashuvni,  
 Eslab, suhbat qilgani.  
 Ikki chopar yo'rg'alatdi,  
 Ovul sari otini.  
 Yo'latmadi chorborg'iga,  
 Cholning ochko'z xotini.  
 Yodga soldi ular shu payt  
 Boshoq tergan joyni ham.  
 Ko'moch bilan atalani,  
 Xulvo qo'shgan choyni ham...  
 Choparlarni qarg'ay-qarg'ay,  
 Yetmish yoshli «nozanin»  
 Kirib ketdi hovlisiga  
 Tanbalab darvozani.  
 Qoldimikan, eh, ajabo,  
 Chol ko'zin shira bog'lab.  
 Tavakkal, — deb hukmdorning  
 O'zi bordi so'roqlab.






Cholning burni osmon qadar,  
Nimadandir domangir.  
O'dag'aylab chiqib keldi,  
Qo'sh nabira davangir.  
Amir Temur g'azab otin,  
Bosolmadi hovurin.  
Kulin ko'kka sovurtirdi,  
Ochko'z cholning ovulin...

\* \* \*

Saakyanning so'zlaridan  
Sehrlanib-sirlanib,  
Rahmat aytdik bizlar unga,  
Lol qolib, ta'sirlanib.  
To'ng'iztog' ham hikoyatdan  
Tosh qotib qoldi rosa.  
Bu yog'iga endi Sizlar,  
Chiqargaysiz xulosa...

## BURGUTNING O'LIMI

Ovuldoshim Muso bobo  
Zo'r burgutchi, mergandir.  
Menga ushbu hikoyani  
O'zi so'zlab bergandi:  
— O'g'lim, bu ish sodir bo'ldi  
Yuksak O'ng'or tog'ida  
Yanvar oyi, qor tizzadan,  
Ayni chilla chog'ida.  
Sira quruq qaytmaganman  
Bo'zbu bilan O'ng'ordan.  
Ovchi xalqi rizqin topar  
O'nta g'ormas, jo'n g'ordan.  
Chap kiftimda sor burgutim  
Qalqib-qalqib boradi.  
Lof emasdир, sirtlonni ham  
Bir hamlada oladi.






O'n oy uni obdan toblab,  
 Zerikmadim dangal gap,  
 Quyonni-ku chap oyoqda  
 Ezib qo'yar changallab.  
 Hatto tog'lar sog'inarmish  
 Merganlarni, ovchini.  
 Sal oldinda chopib borar  
 Sodiq itim — Lochinim.  
 Qo'qiylbelim dovonidan  
 Izni chapga soldirib  
 Tanish manzil Beshbodomda  
 Xurjun, otni qoldirib.  
 Yolg'izoyoq so'qmoq bilan  
 Oshib o'tdim Osqadan'<sup>1</sup>  
 Ovning sharti: «Ehtiyot bo'l,  
 Sharpa qilmay bos qadam».  
 Atrof oppoq. Archazorlar,  
 Holi tuman, g'ubordan  
 Go'yoki qish tog' boshidan  
 Shakar sepib yuborgan.  
 Kaklik, chillar to'dalashib  
 Pastga uchib o'tardi.  
 Burgutimni silab-siypab  
 Tumog'asin<sup>2</sup> ko'tardim.  
 Shu payt birdan sayxonlikda,  
 Tulki ko'zga ko'rindi.  
 Qarchig'ayim qanot qoqdi  
 Qani, tezroq ol endi.  
 Sermab ulkan qanotini  
 Suzar osmon toqida.  
 Tulki esa borar beg'am  
 Qatlamtosh peshtoqida.  
 Itim bo'lsa bu holatni  
 Payqamadi, sezmadni.  
 Burgut o'zin ovga chog'lab,

---

<sup>1</sup> *Osqa* qoya.

<sup>2</sup> *Tumog'a* burgutning boshiga kiydiriladigan charm niqob.



# ЎҚИЛДИММИ

Payt poyladi, tezladi.  
 Qiziq, tulki nimanidir  
 Mahkam ushlab qo'nqayib  
 Sor burgutdan uzmay ko'zin  
 O'tirardi cho'nqayib.  
 Bu nimasi, o'zimni hech  
 Tiyolmadim kulkidan,  
 Har qandayin ayyorlikni  
 Kutish raumkin tulkidan.  
 Tarlon burgut uch aylanib,  
 Sho'ng'ib qoldi zARB bilan,  
 Chovut soldi o'ljasiga  
 Shiddat bilan, xarb bilan,  
 Tulki yonlab, hatlab o'tdi,  
 Qor to'zg'idi yanchilib,  
 Burgut o'zin to'xtatolmay  
 Qoldi yerga sanchilib...  
 Bir oyog'in burgut uzra  
 Sal ko'tarib muttaham  
 Peshob qildi, shu qilig'i  
 Malol keldi juda ham.  
 Hiyla-nayrang g'olib chiqdi.  
 Mundog'i kam bo'lgandir.  
 «Bopladimmi» degan kabi  
 Borar tulki mug'ombir.  
 Qiy-qiyolab ingrар burgut,  
 Itni qo'yib yubordim.  
 Jon-jahd bilan o'pkam to'lib,  
 Ortidan yetib bordim.  
 Pastga tomon ayyor tulki  
 Qochsa-da quvmas lochin.  
 G'ingshir qushning atrofida  
 Yo'q deganday ilojim.  
 Ko'rsam, keskir qilichdayin  
 Keksa archa tanasi —  
 Balandligi naq tizzadan  
 Yashin urgan chamasи.

# ЎҚИЛГАРГА

Tulki uni ushlab turib  
 Cho'qqaygan-u naf bergan  
 Burgut o'qday otulganda  
 Aldab ketgan, chap bergen.  
 So'nggi marta bir talpinib  
 Qanotin qoqdi shunqor.  
 Cho'qqlarga armon bilan,  
 Suq bilan boqdi shunqor.  
 O'shanda men, yanglishmasam,  
 Yetmishga chiqqan edim.  
 Merganchilik ov haqida  
 Ko'p naql uqqan edim.  
 Lekin bunday hodisani  
 Birinchi bor ko'rishim.  
 Kim o'ylabdi burgutimning  
 Bu holatda o'lishin.  
 Shu voqeа sabab bo'lib,  
 Tashladim ovni, o'g'lim.  
 Ammo senga rostin aytsam  
 Tog'larga payvand ko'nglim.




## ADOLATLI QOZI

*(Ertak)*

Tovuqlarning arz-dodini  
 Qozi -- Arslon tingladi.  
 — Tulkini topinglar, -- deb  
 Sarkotibga imladi.  
 Yasovullar otlanib,  
 Ketishdi qir' tomonga.  
 Qozi kalon buyrug'in  
 Bajarmaslik yomon-da,  
 Paydo bo'ldi quv Tulki,  
 Yetmish yetti bukilib,  
 Qo'ltig'ida par yostiq  
 Ta'zim qilar yukinib:  
 — Davlatingiz bir umr,  
 Bo'lsin, bekam, ziyoda  
 Kavar' terib yuribmiz  
 Zog' uchmagan qiyoda,  
 — Qo'l solibsan, to'g'rimi  
 Xo'rozlarga, tovuqqa?  
 Oliy jazo lozimdir  
 Senday turqi sovuqqa.  
 — To'g'ri, taqsir bulardan  
 Ko'p tashvishga tushdik-a,  
 Qiron kelsin bu zotning  
 Avlod-ajdod -- pushtiga.  
 Shodmiz sizdek taqsirning  
 Yarasak xizmatiga.  
 Bizlar o'chmiz tovuqning --  
 Go'shtigamas, patiga.  
 Ushbu sovg'a, hazratim,

---

<sup>1</sup> Tulki suybeydigan o'simlik mevasi.



# ЎҚИЛГАН СИЗГА

Sizga atab tikilgan.  
 Belga mador, fanda ham  
 Isbotlanib chiqilgan.  
 Par yostiqni qozining  
 Yonboshiga suyadi.  
 Arslon esa Xo'rozga  
 Qosh-qovog'in uyadi.  
 Tushuntirar Xo'rozboy:  
 — Tulki nohaq mutlaqo.  
 Qozi so'zlar xotirjam  
 Bo'lmaganday hech vaqo:  
 — Hal qilamiz bu ishni  
 Besh-olti kun orasi.  
 Gunohiga yarasha  
 Ko'riladi chorasi.  
 Inobatga olinmay  
 Ona tovuq faryodi  
 Tinchib ketdi shu taxlit  
 Sho'rliklarning arz-dodi.  
 Tulki o'pka qo'ltiqlab  
 Bilgan ishin qilardi.  
 Jo'jalarni payt poylab  
 Qaqshatardi, shilardi.  
 Kun ortidan tun o'tib,  
 Falak charxi aylandi.  
 Bu orada Qashqirvoy  
 Qozi qilib saylandi.  
 Boshga tushgan qayg'udan  
 Ko'z yoshlarin yashirmay,  
 Najot istab tovuqlar,  
 Kirib keldi shoshilmay.  
 Bayon etdi birma-bir,  
 — Tinglang, to'ram, arzimiz.  
 Shum Tulkining dastidan  
 Sarg'aydi-ku tarzimiz.  
 Aslo cho'zish mumkinmas  
 Bunday ishni shu kezda...

# ЎҚИЛГИЧ

Qo‘ltig‘ida par yostiq  
 Tulkivoy keldi tezda  
   – Davlatingiz bir umr,  
 Bo‘lsin bekam, ziyoda  
 Kavar terib yuribmiz  
 Zog‘ uchmagan qiyoda.  
   – Olib ikki o‘g‘lingni  
 Tunov kuni shatakkka  
 O‘g‘rilikka tushibsan  
 Yarim tunda katakka.  
   – Ha, rost! Faqat Siz uchun  
 Shu ishga bordim, netay?  
   – Men uchun? Xo‘s-h-xo‘s! Nega?  
   – Yaxshisi bayon etay.  
 Shu badkirdor tovuqlar  
 Aytgan chog‘i oshirib,  
 Yostiq tikish kasbimiz  
 O‘tirmayman yashirib  
 Koni g‘urbat, mayda ish,  
 Har bir bolish, har yostiq  
 Kamtarin qulingizdan  
 Sizga ushbu par yostiq.  
 Shu gapdan so‘ng Tulkini  
 Na so‘kdi, so‘roqladi  
 Bechora tovuqlarni  
 Ayyor yana dog‘ladi.  
 Bo‘ri uni qo‘llagach,  
 Elni hang-u mang etib,  
 Tuxumlarin o‘g‘irlar  
 Makiyonni gangitib.  
 Kun ortidan tun o‘tib  
 Falak charxi aylandi.  
 Vaqt kelib bir Tayg‘on  
 Qozilikka saylandi.  
   – Tavakkal, – deb tovuqlar  
 Yana arzga kelishdi  
 Bo‘lgan gapni Tayg‘onga



Qo'ymay aytib berishdi  
 Darg'azab bo'lib qozi,  
 Boshqa ishni qoldirdi.  
 Qarang, hash-pash deguncha  
 U Tulkini oldirdi  
     — Davlatingiz bir umr  
 Bo'lsin, bekam ziyoda.  
 Sizga atab par yostig'  
 Tikdim, kezib qiyoda  
     — Menga qara, shum, shayton  
 Baqirib berdi qozi  
 Arqonning uzuni soz,  
 Yaxshidir gapning ozi.  
 Tozi, Burgut, Lochinni  
 Tayg'on ovga shayladi.  
 Paryostiqni Xo'rozga  
 Siylov -- tortiq ayladi.  
     — Bu makkorni hoziroq  
 Qirga quvlab chiqinglar.  
 Tulkি zoti uchrasa  
 Tutib, somon tinqinglar.  
 Tilyog'lama, ayyorlik  
 Janjallarning asosi,  
 It qavmining shu bois,  
 Tulkida ko'p qasosi.  
 Tozilarga bir umr,  
 Shudir mening farmonim  
 Tulkisifat ozaysa  
 Ushalgusi armonim.  
 Oxiri voy, o'rtaga —  
 Kim solsa gar adovat  
 Yengib chiqar nihoyat  
 Haqiqat-u,adolat.






## ORIYATLI XO'ROZ

«Charxim tanob tashlaydi,  
Bir baloni boshlaydi.»

**Xalq qo'shig'idan**

Huri momo yetmishida  
Yesir qoldi cholidan.  
Yo'qlaguchi hech kimsa yo'q  
Yolg'iz kampir holidan.  
Ko'nib ketgan hayotning u  
Achchiq-chuchuk talxiga,  
Xasratini aytar faqat  
Erta-yu kech charxiga.  
Qafasdayin hovli-joyi,  
To'rtta tovuq, xo'rozi.  
Mis qumg'on-u cho'yan dekcha  
Choldan qolgan merosi.  
Momoni ko'p o'ylantirar  
«Dakan» otliq darozi.  
Uning chakki yurishidan  
Tovuqlar ham norozi.  
To'g'ri, sira erinmaydi  
Erta-sahar turishdan.  
Lekin ko'rsa xo'roz zotin,  
Urishgani-urishgan.  
O'zi nimjon, biroq qaysar,  
Arang yurar kildirab.  
Bexos tushgan tepkilardan  
Uchib ketar pildirab.  
Kaltakni yeb, ostonadan  
Zo'rg'a hatlar chalajon.  
— Shunday bo'lib qoldi qarang,  
Kechirgaysiz xolajon.



# ЎҚИЛМОҚЛАР

— Voy, sho'rim, — deb chipor Tovuq  
 Qo'lting'idan yo'laydi.  
 Supra yozib bulamiqqa,  
 Kampir unni elaydi.  
 Xola koyir, — ish qilsa-chi,  
 O'z holiga yarasha.  
 Yo iligi to'qroq emas,  
 Nog'oracho'p, tarasha.  
 Qisir emdi atashadi,  
 Buzoq qolsa kam sutdan.  
 Tabiat ham o'chakishib,  
 Uni bo'ydan kamsitgan.  
 Uch kun o'tib-o'tmasdanoq,  
 Turib ketar oyoqqa.  
 — Ho'l balodan asra o'zing,  
 Hoy, do'zaxi qayoqqa?  
 — Tashvish qilmang mendan xola,  
 Tezda qaytib kelaman.  
 To'rt ko'chalik Dakanboyga,  
 Bir gap aytib kelaman.  
 Darvozani oqshom kimdir,  
 — Oching, — dedi, — xolajon!  
 Qurg'ur yana atak-chechak,  
 Kirib kelar chalajon.  
 Chap qanotin tayangancha  
 Turmoq bo'lar chog'lanib.  
 O'n kun yotdi o'ng kuragi  
 Taxtakachga bog'lanib.  
 O'qtin-o'qtin aljiganda  
 Dori-darmon berilar.  
 «Men ularga ko'rsataman» —  
 Goh alahsib kerilar.  
 Kampirshoning eski charxi  
 Yarab yomon kuniga.  
 Don va yemish olib chiqar  
 Kalavasin puliga.  
 Ko'p o'tmayin jir bitadi,

ЎҚИЛДАРЛАБОЛЛАР

O'zboshimcha sayoqqa.  
 Aytib qo'ymas tovuqlarga  
 Ketganligin qayoqqa?  
 Po'stagini rosa qoqib,  
 Uyga tashlab ketishar.  
 Qasam ichar, — urushmayman, —  
 Bo'ldi, xola, yetishar.  
 Kim ko'ribdi parrandaning  
 Bunday qiyiq, gojini.  
 Bir oyog'in sindirishib,  
 Cho'qib opti tojini.  
 Bu gal uzoq yotib qoldi  
 O'zi aybdor nachora?  
 Huri xola jig'ibiyron  
 Nima qilsin bechora?  
 G'uv-g'uv ishlab turgan charxi  
 Birdan tanob tashlaydi.  
 Kampir sezar, yashshamagur  
 Bir baloni boshlaydi.  
 Xo'roz qo'ltiqtayog'ini  
 Tashlab avji bahorda,  
 So'rab qoldi kechirim  
 Turib erta nahorda.  
 — Uzr xola, ish qilmadim  
 Tuzingizga yarasha.  
 — Yana qayga jo'nab qolding,  
 Hoy notavon, zumrasha.  
 — Ovulda men urishmagan  
 Xo'roz zoti qolmadi.  
 Birortasi na yengilib,  
 Boshin yerga solmadi.  
 Ruxsat bering ketmoqchiman  
 Olislarga bosh olib  
 Makyonlar hayron, xafa,  
 Ko'zlariga yosh olib.  
 Yengib chiqsam o'zga yurtda  
 Faqat shunda qaytarman.

ЎҚИЛМОДАРЛАГА БИЛИНМАС


Qolgan gap-so‘z sarguzashtni,  
 Kelgusi gal aytarman.  
 Shundan beri ko‘p yil o‘tdi,  
 Boshqalarga bilinmas.  
 Huri xola mijjasiga  
 Uyqu savil ilinmas.  
 Yog‘siragan charxning o‘qi  
 Alamzada g‘ichirlar.  
 Taqdiriga shukur aytib  
 Momo hazin pichirlar:  
 — Sog‘-salomat yurganmikin?  
 Og‘rib-netmay, cho‘qilmay,  
 Yoki o‘lib ketdimikin  
 Janozasi o‘qilmay?  
 Qadr-qimmat topib balki,  
 Begona yurt-o‘lkada.  
 Erta-indin kirib kelar,  
 Safar xalta yelkada.  
 Hamon uning yo‘lin poylab,  
 Hafta, oyni sanaydi.  
 «Tirq» etgan sado kelsa,  
 Darvozaga qaraydi.



## NAFARMON SUT HANGOMASI


*(Rassom Tolibjon Qanoatovga bag'ishlayman)*

Bundan o'n to'rt yil avval  
 Bo'stonliqda avji yoz.  
 Tabiatni olqishlab,  
 Qushlar aytar sarafroz.  
 Nosir, Ruslan, Ibaydullo,  
 Tolib aka bosh bo'lib  
 Xizmat bilan kelishgan,  
 Hamkor-ku, sirdosh bo'lib,  
 Bolalar oromgohin,  
 Mavsumga sozlash kerak.  
 To'rtta rassom to'rt yoqdan,  
 Uni jihozlash kerak.  
 Moybo'yog'-u rang bilan,  
 Bog'liq bizning hangoma,  
 Qilqalamlar ishga shay,  
 Va kiyildi korjoma.  
 To'rt chelakka bo'yoqlar  
 Qorishtirib chiylandi.  
 Bo'laklari ezg'ilanib, —  
 Qilcho'pakda iylandi.  
 Bir paqirda sariq rang,  
 Birida ko'k tovlanar  
 Qizil bo'yoq misoli  
 Quyoshday olovlanar  
 Shu asnoda rassomlar,  
 O'z g'amini yeyishib,  
 Chelakdag'i bo'yoqlar,  
 Biroz tinsin deyishib  
 Dumbul ko'mib quvrayning  
 Laxcha cho'g'li qo'rige






Tamaddi qilmoq uchun,  
 To‘plandilar so‘riga  
 Suhbat ham qizib ketdi,  
 Choy bahona o‘tirib,  
 Gurunglashar kasbdoshlar,  
 Gap qumg‘onday ko‘pirib.  
 Avji choshgoh, Bo‘stonliq,  
 Nur qo‘ynida yaraqlar.  
 Sayxonlikdan sas keldi,  
 Nedir birdan taraqlab.  
 Tolib aka o‘girilib  
 Soy tarafga qarasa  
 Bebosh sigirning ishi,  
 Zap o‘ziga yarasha.  
 — Xo‘s! Xo‘s! — deya ulfatlar  
 Etdi molning qoshiga  
 Qizil rangli chelakni  
 Mol kiygandi boshiga.  
 Rassomlar-chi lol, hayron,  
 Qiyoqga sig‘mas taqqos  
 Paqirdagi bo‘yoqni  
 Ichib qo‘yibdi paqqos.  
 Abdurasul cho‘ponning  
 Nafsi yomon molini  
 Mehmonlar haydar, ammo...  
 His qiling ahvolini...  
 «Hali ish boshlamasdan  
 Bir kor-hol bo‘lib qolsa  
 Eski tanish cho‘ponning,  
 Sigiri o‘lib qolsa»...  
 Ana shu o‘y, vasvasa  
 Tashvishga solib qo‘ydi,  
 Shaharlik mehmonlarning  
 Oromin olib qo‘ydi.  
 Şunday qilib azizlar  
 Shukuhli tong ham otdi.  
 Saharxez mayna, bulbul,





Odamlarni uyg'otdi.  
 Tolib aka andarmon,  
 Yuragi g'ash, bosh garang  
 Shu payt cho'pon — Usta — der:  
 — Mana bu sutga qarang  
 Munozara boshlandi,  
 Shundoq qo'shni yo'lakda,  
 Xuddi olma guliday,  
 Nafarmon sut chelakda  
 Ajablanmang sira ham  
 Idroki zo'r o'quvchim  
 Bu voqeal sirini  
 Sizga aytmoqlik burchim,  
 Bilib qo'ying, aslida,  
 Nodir bo'yoq — ranglarga,  
 Toza asal qo'shilar  
 Ziyrak kishi anglar-da...





## XULOSA

*Tiyrak, ziyrak bolajonlar,  
Bor gapimni she'rda aytdim.  
Sizga ayon bo'ldi chog'i,  
Qayga borib, qaydan qaytdim.  
Shoir xalqi qalb gavharin,  
Kitobxonga tashmalarkan  
Chunki, tatib ko'rdingizlar,  
Men suv ichgan chashmalardan.  
Orzularim – uchqur tulpor,  
Uchqur otni tush ko'raman.  
Fikr bo'lsa, shartta ayting  
Dangal so'zni xush ko'raman...*



## MUNDARIJA

Dil rubobi . . . . .	3	Osmon qaydan boshlanar . . . . .	44
Qo'sh qanot (So'z boshi) . . . . .	4	Qishloqda tun . . . . .	45
<b>ONA VATAN</b>		Kuz . . . . .	46
Qiyosi yo'q . . . . .	12	<b>BOLALIKKA QAYTAMAN</b>	
Tuproq . . . . .	13	Yo'lchi yulduz . . . . .	48
Sog'inch . . . . .	14	Onajonim . . . . .	50
Ona tilim . . . . .	15	Men yoqtirgan raqam . . . . .	51
Zar uqali . . . . .	16	Bolalikdan bir lavha . . . . .	52
Qarog'im O'sh . . . . .	17	Chakka . . . . .	54
Osmoni kengroq . . . . .	18	Boshim uzra . . . . .	55
<b>HALI TUGAL O'QILMAGAN</b>		Baraka boshog'i . . . . .	57
Qo'msash . . . . .	20	So'nggi jang . . . . .	59
Qo'sh qaldirg'och . . . . .	21	Fufayka . . . . .	60
Turnalar . . . . .	22	Laylaklar . . . . .	62
Onam yopgan patirdek . . . . .	23	Yengil tortib . . . . .	64
Olmos qalam . . . . .	24	Safed Bulon . . . . .	66
Bahor kelgach . . . . .	25	Dostonchi Davron tog'a . . . . .	67
Boychechak . . . . .	26	Yurtdoshlarimga maktub . . . . .	68
Mushak . . . . .	27	Onamning so'nggi iltimos-lari . . . . .	69
Quyosh bizni ardoqlar . . . . .	28	<b>ENG POKIZA, SHO'X-SHANDIR</b>	
Navro'z . . . . .	29	Maqtanchoq chumoli . . . . .	72
Chaqmoq . . . . .	30	G'oz karnaychi bo'lmasin . . . . .	73
Qizg'aldoqlar qutlashar . . . . .	31	Tadbirkor jo'ja . . . . .	74
Qaldirg'och . . . . .	32	Mayiz . . . . .	75
Toldibuloq . . . . .	33	Xayrlashmay . . . . .	76
Asfaltdagi rasmlar . . . . .	34	Chaqimchingning jazosi . . . . .	77
Oq bulut . . . . .	35	Nasibaning olmasi . . . . .	78
Do'l . . . . .	36	Tugab qoldi . . . . .	79
Bug'doyzorda . . . . .	37	Tugma . . . . .	81
O'n tovuqqa bermadik . . . . .	38	Arqon qilib . . . . .	82
Faqat yozda aytninglar . . . . .	40	Sichqonning orzusi . . . . .	83
Chilla chiqib . . . . .	41	Bahs . . . . .	84
Ko'pkari . . . . .	42		
Ilinj . . . . .	43		

Joyiga osayapman . . . . .	85	O'qituvchim . . . . .	127
O'rgatyapman . . . . .	86	Yosh dorbozlar . . . . .	128
Pashsha . . . . .	87	Hushtak chalib turasiz . .	129
«Sh» bilan «Ch» . . . . .	88	Hasharchilar . . . . .	131
Hayvonot bog'ida . . . . .	89	<b>UCHQUR TULPOR</b>	
Bobo, qancha yoshdasiz? .	90	Ovning gashti . . . . .	134
Hali yosh-da . . . . .	91	Barchasi yodimda . . . . .	135
O'n kaptar . . . . .	92	Poyga zavqi . . . . .	136
Oq shaftoli . . . . .	93	Beshta sanoch . . . . .	137
Yetmay qoldi . . . . .	94	Shirmon kulcha . . . . .	138
To'rt amal . . . . .	95	Yugan solib, egar urib . .	140
Kim aytadi? . . . . .	97	Bu dunyoning ishlari . . .	142
Ishonmasang . . . . .	98	Ko'zin ochsa . . . . .	143
Beshta arra . . . . .	99	O'yin topmay . . . . .	144
Chumchuqlarga uyadir . .	100	<b>IXLOS BILAN</b>	
Farqi bitta harfdadir . .	101	Yassaviy zuryodlari . . . . .	146
Bo'kib qolgan . . . . .	102	Ustozlarga bag'ishlov . . .	149
O'pkani qo'ltilqlamay . .	103	Beshik . . . . .	150
Xolis xizmat . . . . .	104	Suhbat . . . . .	152
O'rgimchakning hiylasi .	105	Ibrat . . . . .	154
Sergap qiz . . . . .	106	Safar bilan . . . . .	156
O'n ikki varaq daftар . .	107	Ko'pni ko'rrik . . . . .	157
O'chirg'ich . . . . .	108	Oqqushlar . . . . .	158
Oyim o'zi . . . . .	109	Omon bo'lsin . . . . .	159
Ovda . . . . .	110	O'sha kuni . . . . .	160
Shalop-shulup . . . . .	111	Jo'rovoz . . . . .	161
Jirafa nega xafa? . . . .	112	Elektrichka . . . . .	162
Zerikish . . . . .	113	Quyoshni qarshilab . . . .	164
Burni qonab . . . . .	114	Tilak . . . . .	166
Qovun yedik . . . . .	115	<b>TURMUSH TARZI</b>	
Maslahat . . . . .	116	Oltin yolli tulpor qissasi .	168
Cho'ntakning teshigi . .	117	Qismat . . . . .	171
Daydi kuchuk . . . . .	118	Burgutning o'limi . . . . .	174
«Assalom»ni qilmas kanda	119	Adolatlì qozi . . . . .	178
Ishlarim ko'p . . . . .	120	Oriyatli xo'roz . . . . .	182
Shaftoli . . . . .	121	Nafarmon sut hangomasi .	186
Besh panja . . . . .	122	Xulosa . . . . .	189
Shoshmay tur . . . . .	123		
Dilmurodning vaqtி yo'q .	124		
E'tiroz . . . . .	125		

## ORZULARIM — QO'SH QANOTIM

(She'rlar va ertaklar)

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyyati  
Toshkent — 2003

Muharrir *Erkin Malik*  
Rassom *Li.Galina*  
Badiiy muharrir *A. Musaxo'jayev*  
Texnik muharrir *L. Xijova*  
Sahifalovchi *M. Atxamova*  
Musahih N. Oxunjonova

Terishga berildi 16.06.03. Bosishga ruxsat etildi 21.08.2003. Bichimi  
84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>. Peterburg garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i  
10,08. Nashriyot-hisob tabog'i 12,56. Adadi 3000 nusxa. Buyurtma  
№ 5109. Bahosi kelishilgan narxda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasi, 700083. Toshkent shahri, Buyuk Turon,  
41.**